BIR BO‘LSAK – YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK – VATANMIZ!

www.mv-vatanparvar.uz

VATANPARVAR

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O‘ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

● Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan ● 2024-yil 4-oktabr, №40 (3102)

4 “DOVYURAK JANGCHI” NISHONI UCHUN

5 TO‘MARIS IZDOSHLARI BELLASHDI

8 VATAN HIMOYASI SHON-SHARAF ISHI

11 JASORATNI YURAGIMGA JAMLAYMAN

16 BELLASHUVLAR VATANPARVARLIKKA XIZMAT QILADI





IJTIMOIY-SIYOSIY, MA’NAVIY-MA’RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

BIZ HAQIMIZDA

@ vatanparvar-bt@umail.uz

t.me/mv_vatanparvar_uz

t.me/mudofaavazirligi

facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya

SAYLOV TIZIMLARI
ULARNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI



Proporsional saylov tizimida saylovchi bir nomzodga emas, partiya yoki nomzodlar ro‘yxatiga ovoz beradi. Odatda, bu ro‘yxatda ko‘rsatilgan nomzodlar soni mandatlar sonidan ortiq bo‘ladi. Shu sababli ro‘yxatda ko‘rsatilgan nomzodlardan qaysi biri parlament deputati bo‘lishi ikki tamoyil asosida hal qilinadi.

Birinchidan, navbatiga ko‘ra, ya’ni ro‘yxatning boshida turganlar birinchilardan bo‘lib parlament a’zoligiga o‘tadi. Ikkinchidan, preferensiallik tamoyiliga ko‘ra, ya’ni saylovchiga ro‘yxatda ko‘rsatilgan biror nomzodni belgilash huquqi beriladi. Ta’kidlash joizki, proporsional saylov tizimi faqat kollegial organlarga *(masalan, parlament)* o‘tkaziladigan saylovlardagina qo‘llanishi mumkin. *(Saylov kodeksi. 961-modda. “Yagona saylov okrugi bo‘yicha Qonunchilik palatasiga saylov natijalarini aniqlash va deputatlik o‘rinlarini taqsimlash tartibi. Partiya ro‘yxati bo‘yicha saylangan deputatlar o‘rtasida deputatlik mandatlarini taqsimlash Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro‘yxatga olingan partiya ro‘yxatiga kiritilgan deputatlikka nomzodlar ketma-ketligiga muvofiq amalga oshiriladi.)*

Proporsional *(partiyaviy ro‘yxat asosidagi)* tizim G‘arbiy Yevropadagi aksariyat mamlakatlarda, shuningdek Isroilda keng qo‘llaniladi. Uning asosiy mohiyati shundaki, dastlab partiyalar nomzodlarning umummilliy yoki hududiy ro‘yxatini tuzadi, saylovchilarning har biri esa o‘z partiyalari foydasiga ovoz beradi. So‘ngra nomzodlar mazkur partiyalarga berilgan ovozlarning umumiy soniga proporsional ravishda saylanadi. Parlamentda vakillikka sazovor bo‘lish uchun partiyalar har safar ko‘pchilik ovozga ega bo‘lishlari talab etiladi.

Proporsional saylovlarning afzalliklari shundaki, u birinchidan, siyosiy partiyalarning doim faol bo‘lishiga turtki beradi; ikkinchidan, biror deputat o‘z vakolatini amalga oshirolmay qolgan taqdirda, uning o‘rnini to‘ldirish uchun o‘tkaziladigan oraliq saylovlarni bartaraf etadi *(o‘z vakolatini topshirgan deputatning o‘rnini partiyaviy ro‘yxatdagi navbatdagi partiyadoshi egallaydi)*. Uchinchidan, faqat yirik siyosiy partiyalar emas, balki kichiklari ham parlamentga saylanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu hol parlament ichida turli fraksiyalarning faoliyat olib borishini ta’minlaydi.

Proporsional tizimning asosiy kamchiligi shundaki, elektorat nomzodlarni tanlash jarayoniga ta’sir ko‘rsata olmaydi, saylangan vakillar esa o‘zlarini saylovchilar oldida emas, ko‘proq o‘z partiyalari oldida mas’ul, deb biladi. Biroq proporsional tizim siyosiy partiyalarni faollikka undaydi; saylovchilar e’tiboriga nomzodlarning mutanosiblashgan va saralangan ro‘yxatini taqdim etishga da’vat etadi. Bu esa partiyalararo raqobatning nihoyatda kuchayishiga olib keladi.

Aralash saylov tizimi majoritar va proporsional saylov tizimlari nuqsonlarini kamaytirishini nazarda tutgan holda, ularning uyg‘unlashuvidan hosil bo‘lgan. Bu uyg‘unlik parlamentning bir qismi – majoritar, boshqa qismi esa proporsional tizim asosida saylanishida namoyon bo‘ladi.

(2023-yil 18-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini aralash saylov tizimi (majoritar va proporsional) asosida o‘tkazilishi belgilandi.)

Saylov tizimlari saylovoldi kurash ishtirokchilarini saylov qoidalariga amal qilishga undaydi, saylovoldi ittifoqlar tuzilishiga ta’sir ko‘rsatadi. Hokimiyatning vakillik organlariga saylovlar, odatda, keskin kurashlar ostida o‘tadi. Chunki mandatga da’vogarlar soni ko‘p bo‘lib, ular saylovchilarning e’tiborini qozonish maqsadida turli vositalardan foydalanadi. Siyosat sahnasida turli voqea-hodisalar sodir bo‘ladi: miting va yig‘ilishlar uyushtiriladi, nomzodlar saylovchilar bilan uchrashadi, siyosiy yetakchilar ommaviy axborot vositalarida tanqidiy nutqlar va dasturlar bilan chiqish qiladi, ko‘chalarda reklama plakatlari paydo bo‘ladi, varaqalar tarqatiladi va hokazo.

Ayrim mamlakatlarda, xususan Germaniyada aralash saylov tizimi – majoritar va proporsional saylov kombinatsiyalari qo‘llaniladi. Nemis saylovchisi ikki ovozga ega: birinchi ovozni u o‘z saylov okrugidagi nomzodlarning biriga bersa, ikkinchi ovozni partiyaviy ro‘yxat asosida o‘ziga ma’qul bo‘lgan partiyaga beradi. Birinchi ovoz muayyan nomzodga berilsa, ikkinchi ovoz siyosiy partiyaga beriladi. Shu tariqa parlament deputatlarining yarmi yakka tartibda, qolgan yarmi esa partiyaviy ro‘yxat asosida saylanadi.

Ma’lumki, XX asrda Germaniya demokratik jamiyatga tomon nihoyatda qiyin bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tdi. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushidan so‘ng mamlakat totalitar va antiliberal mafkuradan voz kechib, demokratik va gumanistik qadriyatlarni mustahkam qaror toptirishi kerak edi. Bu vazifalarni bajarishda va mamlakatda siyosiy madaniyatni shakllantirishda nemis parlamenti – Bundestagning roli beqiyos bo‘ldi. Germaniyada Parlament Respublikasi shaklidagi liberal-demokratik davlat bunyod etildi va unda barcha fuqarolarning erkinliklari, qonun ustuvorligi, hokimiyatlar bo‘linishi, siyosiy qarorlar chiqarish jarayonida xalq ommasining ishtiroki ta’minlangan huquqiy-demokratik davlat bunyod etdi.

Proporsional saylovlarning afzalliklaridan yana biri oraliq saylovlarning o‘tkazilmasligida namoyon bo‘ladi. Masalan, Germaniyada qo‘shimcha saylovlar o‘tkazilmaydi. Bundestagdan ketgan deputat o‘rniga partiyaviy ro‘yxatda undan keyin turuvchi kishi deputat bo‘ladi. Bundestag saylovlari oralig‘ida landtaglar *(mahalliy qonunchilik organlari)*ga saylovlari o‘tkazilishi natijasida siyosiy partiyalarning faolligi saqlab qolinadi.

Agar Germaniya parlamentarizmini vakillik demokratiyasining boshqa modellari bilan solishtiradigan bo‘lsak, uning aralash shaklga ega ekanini ko‘ramiz. Nemis Bundestagi AQSh Kongressiga o‘xshab hukumat boshlig‘idan mustaqil emas, ayni paytda xuddi Buyuk Britaniya Vakillar palatasiga o‘xshab hukumatga tobe emas. AQSh Kongressi nihoyatda ishchan bo‘lib, mamlakat siyosatini ishlab chiqish va qonunlar qabul qilish bilan faol shug‘ullansa, Buyuk Britaniya Vakillar palatasi, aksincha, hukumat siyosatini “muhrlovchi instrument”, saylovchilar nazdida esa muhim masalalar bo‘yicha bahs yuritayotgan “notiq parlament” sifatida e’tirof etadi. Germaniya Bundestagi ana shu har ikkala modelning aralashmasidan tashkil topgan, deyish mumkin.

Hozirgi davrda majoritar, proporsional va aralash tizimlardan tashqari, yana bir qator saylov turlari qo‘llanadiki, ularda yuqoridagi tizimlarning u yoki bu unsurlari namoyon bo‘ladi. Masalan, so‘nggi yillarda bir qator xalqaro tashkilotlarda konsensus saylov tizimi qo‘llanmoqda. Uning asosiy mohiyati shundaki, saylovchi biror bir alohida nomzod uchun emas, balki nomzodlarning barchasiga 5 ballik tizim asosida baho qo‘yib chiqadi. Chunonchi, prezidentlik lavozimiga 4 nafar nomzod ko‘rsatilgan bo‘lsa, saylovchi nomzodlarning birinchisiga 5 ball, ikkinchisiga 4 ball, uchinchisiga 3 ball va to‘rtinchisiga 2 ball qo‘yadi. Ovoz berish tugagandan so‘ng ballar hisoblab chiqiladi va g‘olib aniqlanadi.

Saylov tizimi jamiyatning siyosiy tizimi bilan bevosita chambarchas bog‘liqdir. Amaldagi siyosiy tizim u yoki bu saylov tizimining qabul qilinishida katta rol o‘ynaydi. O‘z navbatida, saylov tizimi ham siyosiy tizimdagi o‘zgarishlarning mohiyatiga katta ta’sir o‘tkazadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, mamlakatimizdagi saylov jarayonlarida fuqarolarning saylash huquqini ta’minlash, ularga belgilangan qonunchilik asosida sharoitlar yaratish va saylovning yangi tartibda, aralash saylov tizimi bo‘yicha o‘tkazilishi muhim ahamiyatga ega. Chunki ushbu jarayonlar O‘zbekistonning jahonda tutgan o‘rni, xalqaro nufuzi va imijiga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.

Fuqarolar ham saylash huquqini amalga oshirish uchun davlat tomonidan yaratilayotgan sharoitlardan unumli foydalanib, o‘z huquqidan faol foydalanishi, mamlakat kelajagiga befarq bo‘lmasligi lozim.

Mayor Abduqodir OTABOYEV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi katta o‘qituvchisi, s.f.f.d. (PhD), dotsent

Qutlov



USTOZ ROZI TANGRI ROZIDIR

So‘z mulkining sultoni hazrat mir Alisher Navoiy ustoz va shogird munosabatlariga yuksak ehtirom bilan qarar ekan, jumladan shunday yozgan edi:



Agar shogird shayxulislom agar qozidur,
Agar ustoz rozi – Tangri rozidur.

Chindan ham har bir shaxs ustoz saboqlaridan kamolga yetadi, o‘sib-ulg‘ayadi. Shu sabab murabbiylarimizning bemisl mehnatlari bir zum ham yoddan o‘chirib bo‘lmas.

Mudofaa vazirligi markaziy apparatida “Yangi O‘zbekiston – ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi” g‘oyasi asosida 1-oktabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni bayrami munosabati bilan bayram tadbiri bo‘lib o‘tdi.

Unda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi kotibi, mudofaa vaziri, vazir o‘rinbosarlari, keng jamoatchilik vakillari, harbiy xizmatchilar, Qurolli Kuchlar xizmatchilari hamda faxriylar ishtirok etdi.

Tantanali tadbir davomida bugungi kunda yurtimizda ta’lim tizimidagi ulkan o‘zgarishlar, ayniqsa harbiy ta’limdagi misli ko‘rilmagan darajadagi o‘sish va yuksalishlarning zamirida Yurtboshimiz tomonidan olib borilayotgan tizimli siyosat yotganini, bu yo‘lda aziz va hurmatli murabbiylarimizning mashaqqatli mehnati borligini iftixor bilan ta’kidlab o‘tdi.

Shu bilan birga, mudofaa vaziri o‘z nutqida ta’lim-tarbiya sohasida mehnat qilayotgan ustoz-murabbiylarni tabriklash asnosida har bir millatning saodati shu zahmatkash insonlarning yosh avlodga baxshida etadigan ilm-u ma’rifati bilan bog‘liqligini, Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, eng katta boyligimiz yoshlar ekanini, chunonchi vazirlik tizimida erishilayotgan har bir muvaffaqiyatlar zamirida ustozlarning betinim mehnati borligini, ularni bundan keyin ham doimo qo‘llab-quvvatlanishini g‘urur bilan tilga oldi.

Shundan so‘ng mudofaa vazirining tegishli buyrug‘i o‘qib eshittirildi. Unga ko‘ra, eng avvalo, 2024-yili oliy harbiy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilarining pedagogik faoliyatini va kasbiy o‘sishini qo‘llab-quvvatlash hamda “Yilning eng ilg‘or o‘qituvchisi” ko‘rik-tanlovi g‘oliblari, bir guruh harbiy xizmatchilar, Qurolli Kuchlar xizmatchilari hamda faxriylar qimmatbaho va esdalik sovg‘alar, faxriy yorliq bilan taqdirlandi.

Yuqori kayfiyatda davom etgan tadbirda o‘qituvchi va murabbiylarni tabriklash uchun O‘zbekiston xalq artisti Tesha Mo‘minov so‘zga chiqib, sohibqiron



Amir Temur bobomiz tuzuklaridan, jahongashta sarkardaning er yigitlarga so‘zlagan otashin nutqlaridan parchalar ijro etdi. Bobomizning ustozlarga ko‘rsatgan buyuk xizmatlarini, e’zoz va ehtiromlarini ko‘plab tarixiy misollar orqali keltirib o‘tdi.

Mudofaa vazirligi
Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar departamenti





“DOVYURAK JANGCHI” NISHONI UCHUN







Milliy armiyamizda yuqori kasbiy va jismoniy malakaga ega harbiy xizmatchilarni tayyorlash, qo‘shinlarning yuksak jangovar shayligini saqlash maqsadida davlatimiz rahbari tomonidan 2021-yil 10-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining jismoniy tayyorgarligini yuqori darajada tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan. Qarorga ilova qilingan tegishli nizomda esa harbiy xizmatchilarni intensiv sinovlardan o‘tkazish va ularni “Dovyurak jangchi” farqlovchi nishoni bilan taqdirlash tartibi belgilangan.





Ana shu maqsadda Markaziy harbiy okrug “Forish” tog‘ poligonida “Dovyurak jangchi” farqlovchi nishoni uchun navbatdagi intensiv sinovlar o‘tkazildi. Yig‘inning tantanali ochilish marosimida Markaziy harbiy okrug qo‘shinlari qo‘mondoni, Mudofaa vazirligi Jangovar tayyorgarlik bosh boshqarmasi boshlig‘i va mas’ul ofitserlar, harbiy xizmatchilarning ishtirokini baholab boradigan yo‘riqchi-mutaxassislar hamda farqlovchi nishonni olish uchun kelgan da’vogarlar ishtirok etdi.

Marosimda so‘z olganlar mazkur sinovlar milliy armiyamizda yuqori kasbiy va jismoniy malakaga ega harbiy xizmatchilarni tayyorlash, qo‘shinlarning jangovar shayligini yuksaltirish yo‘lida olib borilayotgan ishlarning yana bir amaliy ifodasi ekanini ta’kidlab, harbiy xizmatchilarga mustahkam iroda va kuch-g‘ayrat, yengilmas matonat hamda omad yor bo‘lishini tiladi.

Bellashuvlar bir necha kun davom etib, harbiy xizmatchilar turli mashqlardan iborat uch bosqichli sinovlarda ishtirok etdi. Xususan, birinchi bosqichda kuch mashqlarini tugatgan harbiy xizmatchilar shu vaqtning o‘zida yagona to‘siqlar yo‘lagidan umumiy nazorat mashqlarini bajargan holda o‘tgan bo‘lsa, eng mashaqqatli shart – belgilangan tartibda 30 kilometrga piyoda yurish *(marsh yugurish)* va oxirgi bosqichda o‘qotar qurollardan otish hamda pichoq uloqtirish amaliyotini bajardi.

Sinovlarni Mudofaa vazirligi Jangovar tayyorgarlik bosh boshqarmasi mas’ul ofitserlari va harbiy okruglardan biriktirilgan mutaxassislar xolisona baholab bordi. Saralash nizomiga ko‘ra, bir bosqichdan o‘tolmagan harbiy xizmatchi navbatdagisiga qo‘yilmasligini inobatga olsak, jarayonlar bahslarga boy va murosasiz kechdi.

Bir necha kun davom etgan sinovlarda 400 nafardan ortiq da’vogar ishtirok etgan bo‘lsa, shulardan 250 nafari shartlarni muvaffaqiyatli bajarib, “Dovyurak jangchi” degan mardonavor nomga erishdi. Ma’lumot uchun, ular harbiy unvon va lavozim maoshining bir baravari miqdoridagi biryo‘la to‘lanadigan bir martalik pul mukofoti bilan ham taqdirlanadi va ularga berilgan “Dovyurak jangchi” farqlovchi nishoni butun xizmat faoliyati davomida saqlanib qoladi.



TO‘MARIS



IZDOSHLARI BELLASHDI



Markaziy harbiy okrug “Forish” dala-o‘quv maydonida Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchi ayollar o‘rtasida “To‘maris” ko‘rik-tanlovining yakuniy bosqichi o‘tkazildi. Unda vazirlik tasarrufidagi harbiy okrug va qo‘mondonliklar, muassasa va birlashmalarda faoliyat olib borayotgan xotin-qizlardan iborat 8 ta jamoa bahs olib bordi.



Darhaqiqat, milliy armiyamizning nufuzi va jangovar qudrati yuksalishida erkak harbiy xizmatchilar bilan bir qatorda yelkama-yelka xizmat qilayotgan ayol harbiy xizmatchilarning mehnati beqiyos. Ko‘rik-tanlov jamiyatimizda oila va farzand tarbiyasi bilan bir qatorda mamlakatimiz mudofaa qudratini mustahkamlash yo‘lida ibrat namunasi bo‘lib kelayotgan zukko ayollarni aniqlash va munosib rag‘batlantirish maqsadida tashkil etildi.

Jamoalar bir necha kun davomida To‘maris siymosini gavdalantirgan holda o‘zini tanishtirish, dala sharoitida mazali taom tayyorlash, erkin uslubda 50 metr masofaga suzish, 800, 400, 200, 100 metr masofalarga estafeta hamda to‘siqli yo‘lakdan mashqlarni bajargan holda yugurish, yaradorlarni jang maydonidan olib chiqish, avtomatdan otish kabi saf, harbiy-tibbiy, jismoniy va zukkolik shartlarida bellashdi.



Musobaqa ishtirokchilarini Mudofaa vazirligi markaziy apparati mas’ul ofitserlari, soha mutaxassislari va hamkor tashkilotlar vakillari shaffoflik bilan baholab bordi.

Yakuniy natijalarga ko‘ra, III o‘rin Markazga bo‘ysunuvchi harbiy qism jamoasiga nasib qilgan bo‘lsa, II o‘ringa Toifalangan obyektlarni qo‘riqlash qo‘shinlari qo‘mondonligi jamoasi munosib ko‘rildi. Toshkent harbiy okrugi jamoasi I o‘rinni qo‘lga kiritib, musobaqaning mutlaq g‘olibiga aylandi.

Sharafli kasbida soha rivojiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan tanlov g‘oliblari diplom, kubok va esdalik sovg‘alar bilan taqdirlandi. Shuningdek, bir qator harbiy xizmatchilar turli nominatsiyalar bo‘yicha munosib rag‘batlantirildi.





Qo‘sh sahifa muallifi katta leytenant Muhammad XO‘JAYEV

SHIMOLDA QO‘MONDONLIK O‘QUVLARI



Nukus garnizonida Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug qo‘shinlari qo‘mondonligi boshqaruv apparati, harbiy qism komandirlari va muassasa boshliqlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi hamkorlikdagi kuch tuzilmalari vakillari bilan ikki tomonlama qo‘mondonlik-shtab harbiy o‘yini bo‘lib o‘tdi.







Harbiy boshqaruv organlarining mansabdor shaxslarini jangovar shaylikning yuqori darajalariga keltirganda, vazifalarni bajarishga o‘rgatish, harbiy operatsiyalarga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazishda qo‘shinlarni boshqarish bo‘yicha ofitserlarning ko‘nikmalarini oshirish, boshqaruv organlari ishida harakatlarning hamjihatligiga erishish, o‘zaro yordam va bir-birini almashtira olish munosabatlarini o‘rnatish kabi maqsadlarni mujassam etgan mazkur harbiy o‘yin to‘rt bosqichda tashkil etildi.

Barcha toifadagi ofitserlarning kasbiy malakasini oshirish, ularda yuqori axloqiy-ruhiy sifatlarni va jangovar ruhni yuksaltirish, operativ san’at sirlarini o‘rgatish va strategik fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qilgan va 15 kun davom etgan harbiy o‘yinlarda shartli ravishda mudofaa va hujum jangi tashkil etilib, tomonlarga belgilab berilgan hududlarda qo‘shin tarkibi bilan operatsiyalarni tayyorlash amalga oshirildi.

Ikki qarama-qarshi tomonning shartli ravishda xaritalarda hamda undan keyin kompyuterlardagi modellashtirish va simulyatsiya dasturlari yordamida jang olib boradigan qo‘mondonlik-shtab harbiy o‘yini davomida zamonaviy qurolli to‘qnashuvlar va harbiy harakatlar tahlili asosida olingan ilg‘or tajribalar, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nostandart vaziyatlar va qarama-qarshi kuchlarning ehtimoliy harakatlari har tomonlama ko‘rib chiqildi.

Shartli ravishda jangovar vazifalarni olgan o‘rganuvchilarning vaziyatga to‘g‘ri baho bergan holda asoslangan qarorlarni berishi, ularning zamonaviy janglar va qurolli mojarolar ehtimoliy tavsifi, amaldagi jangovar nizomlarga mos kelishi tekshirib borildi.

Har bir bo‘linma komandiri qo‘shin turlari va maxsus qo‘shinlarni mohirona qo‘llash, shikast yetkazuvchi vositalarning to‘g‘ri qo‘llanilgani, qo‘shinlarning harakati va jangda erishilgan yutuq hamda yo‘qotishlari, kun davomida qo‘yilgan topshiriqlarning bajarilishi va samaradorligi, ularni bajarish jarayonida shaxsiy tarkibning ma’naviy-ruhiy holati, uyushqoqligi hamda ijro intizomi darajasi bo‘yicha kunlik hisobotlari tinglandi.

Qo‘mondonlik-shtab harbiy o‘yinida qo‘shinlarning jangovar harakatlarni samarali tashkillashtirishi va har tomonlama ta’minoti bo‘yicha shtablar, qo‘shin turi, maxsus qo‘shinlar va xizmat turi boshliqlarining faoliyati, ishtirokchilar tomonidan ishlab chiqilgan jangovar-xizmat hujjatlari tekshirib borildi. Texnik va front orti ta’minoti organlari, ularga bo‘ysunuvchi qo‘shilma, harbiy qism hamda bo‘linmalarning harakati, qo‘shinlarning ta’minot masalalarida paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan uzilishlarni bartaraf etish qobiliyati sinovdan o‘tkazildi.

Har bir bo‘linma komandiri vaziyatdan kelib chiqib qabul qilgan qarorini hamda bo‘linmalarga berilgan jangovar buyruq va farmoyishlarni asoslab, ish tartiblari, ishlab chiqilgan asosiy rejalashtirish, farmoyish hamda hisobot hujjatlari o‘quv rahbariyati tomonidan tahlil qilindi.

Tahlil yakunlari bo‘yicha harbiy o‘yinda ishtirok etgan boshqaruv organlari va bo‘linma komandirlarining jang olib borish san’ati, bo‘linmalarni boshqarish va yuklatilgan vazifalarni bajara olish qobiliyati, qo‘shinlarni strategik qo‘llash bo‘yicha bilimlari baholandi.

Ilg‘or harbiy xizmatchilarning bilim va tajribasi yuksak baholanib, barchaga namuna sifatida e’tirof etildi. Xato va kamchiliklar chuqur tahlil etilib, kelgusida ularning oldini olish bo‘yicha tegishli tavsiyalar berildi.

Uch yildan beri Shimoli-g‘arbiy harbiy okrugda o‘tkazib kelinayotgan qo‘mondonlik-shtab harbiy o‘yinining ahamiyati hamda o‘rganuvchilarda jangni rejalashtirishda operativ va taktik hisob-kitoblarni ishlab chiqish ko‘nikmalarining oshishiga qo‘shgan hissasi inobatga olinib, yakunda bu kabi o‘quvlarni yana o‘tkazish bo‘yicha qaror qabul qilindi.

Podpolkovnik
Timur NARZIYEV,
Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug
matbuot xizmati boshlig‘i









HARBIY TEXNIKALAR MAVSUMGA TAYYOR

Shimoli-g‘arbiy harbiy okrugda qo‘shinlardagi eng mas’uliyatli tadbirlardan biri – qurol-yarog‘ va harbiy texnikalarni qishki mavsumda foydalanish rejimiga o‘tkazishdan oldin ko‘rgazmali mashg‘ulot tashkil etildi.

Mazkur kompleks tadbirlar harbiy texnika va qurol-aslahalarni yuqori jangovar shaylik darajasida ushlab turish hamda ob-havoning sovuq sharoitida foydalanishga hozirlash uchun tashkil etiladi.





Nukus garnizonidagi harbiy qismlarning birida qurol-yarog‘ va harbiy texnikalarni mavsumiy foydalanish rejimiga o‘tkazish bo‘yicha tashkil etilgan ko‘rgazmali mashg‘ulotda Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug qo‘shinlari qo‘mondoni general-mayor Farhodjon Shermatov, okrug qo‘mondonligi hamda Nukus va Urganch garnizonlaridagi harbiy qismlarning harbiy xizmatchilari ishtirok etdi.

Tadbirda harbiy texnika va qurol-aslahalarning jangovar shayligini ta’minlash, ularni soz holatda saqlashda ko‘rsatilayotgan texnik xizmatlarning ahamiyati ta’kidlandi. Har bir komandir, har bir harbiy xizmatchi o‘ziga biriktirilgan qurol-yarog‘ va harbiy texnikaning soz va shayligi uchun mas’ul ekanligi eslatildi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda Xorazm viloyati yurtimizning Shimoli-g‘arbiy tomonida joylashgani bois qishning sovuq kunlari boshqa hududlarga qaraganda bu yerda barvaqt hamda shiddat bilan kelishi kuzatiladi. Shuning uchun Nukus va Urganch garnizonlarida joylashgan harbiy qism va muassasalarda jangovar va harbiy texnika hamda qurol-yarog‘larni yozgi mavsumdan qishki mavsumda foydalanish uchun hozirlash ishlari boshqa hududlarga qaraganda oldinroq boshlanib, bu tadbirga jiddiy e’tibor qaratiladi.

Ko‘rgazmali mashg‘ulotni tashkil etish uchun harbiy qismning jangovar va harbiy texnikalarni saqlash parkida 8 ta o‘quv joyi va 25 ta o‘quv nuqtasi tashkil etildi. U yerda jangovar mashina, tank, zirhli transportyor, zenit-artilleriya qurilmalari, maxsus texnika, qurol-yarog‘ va boshqa texnikalarni qishki sharoitda foydalanish rejimiga o‘tkazish ishlarining mohiyati, texnika xavfsizligi qoidalariga rioya etish, tashkil etilgan postlarda samarali va sifatli ish olib borish, qurol-yarog‘ va texnikani ob-havoning harorati past sharoitlarda ishlatish qoidalari, jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha mutaxassislar tomonidan yo‘riqnomalar berildi. Texnikalarga texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ko‘rgazmali tarzda ishlar namoyish etildi.

Mazkur tadbirlarni bajarishda texnologik xaritalarga ko‘ra, harbiy qismlardagi texnikalarda sovitish suyuqliklari almashtiriladi, har bir jangovar mashina agregat va tugunlari tekshiriladi, filtrlarni tozalash va almashtirish ishlari o‘tkaziladi, yoqilg‘i-moylash ashyolari yangisiga o‘zgartiriladi, elektr va aloqa jihozlarining sozligi nazoratdan o‘tkaziladi.

Eslatib o‘tamiz, Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida qurol-aslaha va harbiy texnikalarni mavsumiy foydalanish rejimiga o‘tkazish yiliga ikki marotaba – bahor va kuzda tashkil etiladi.

Tadbir rejasiga ko‘ra, oktabr oyining oxirigacha Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug qo‘shinlaridagi mavjud qurol-aslaha va harbiy texnikalarning barchasi qishki mavsumda foydalanish uchun shay holatga keltiriladi.

Podpolkovnik T. NARZIYEV,
Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug
matbuot xizmati boshlig‘i



Vatan himoyasi SHON-SHARAF ISHI

Mamlakatimiz mustaqilligining qutlug‘ 33 yillik bayrami munosabati bilan Prezidentimiz farmoniga ko‘ra, Qurolli Kuchlarimizning jangovar tayyorgarligini oshirishdagi xizmatlari, xizmat burchini bajarish chog‘ida alohida mardlik, jasorat va fidoyilik ko‘rsatgan insonlar davlatimizning yuksak mukofotlariga loyiq ko‘rildi. Ular safida III darajali serjant Husniddin Mirzamatov “Jasorat” medali bilan taqdirlandi.

Asli Istiqlol ayyomining o‘ziyoq katta-yu kichikning ko‘ngliga quvonch baxsh etishi bilan qadrlidir. Ulug‘ shodiyona sabab ona Vatan oldidagi xizmatlari yuksak e’tirof etilgan fidokor insonlar hayotida bu kun o‘zgacha muhabbat bilan saqlanib qolishi, shubhasiz. Bu haqda qahramonimiz shunday deydi:

– Ha, bu yilgi Mustaqillik shodiyonasi men uchun esda qolarli bo‘ldi. El-yurt tinchligi va osoyishtaligini ta’minlash yo‘lida qilgan xizmatlarim yuksak e’tirof etildi. Bu men uchun katta baxt. Xushxabarni eshitgan yaqinlarimning, ayniqsa ota-onamning quvonganini ko‘rsangiz edi. Xonadonimiz to‘yxonaga aylanib ketdi. Qutlovchilar ko‘p bo‘ldi. O‘sha lahzalarda ota-onamning mamnun nigohlariga qarab, ularning hayajoni, xursandchiligi meni ham qamrab olayotganini his qildim. Men ular xohlagandek farzand bo‘la olganimdan faxrlandim...

– Biz siz bilan shu oy avvalida suhbat qilishni niyat qilgandik. Lekin bog‘lanishning ilojini topolmadik. Sababini keyin bildik: siz Koreya Respublikasida o‘tkazilgan xalqaro merganlar musobaqasida ishtirok etish uchun uchib ketgan ekansiz. Shu musobaqa haqida gapirib bersangiz. Ayting-chi, xalqaro musobaqada O‘zbekiston nomidan ishtirok etish anchayin mas’uliyatli bo‘lgandir?

– Bu musobaqa birinchi marta bo‘lib o‘tdi. Unda turli davlatlardan kelgan 26 ta jamoa ishtirok etdi. Bellashuvlar qizg‘in bo‘ldi. Shartga ko‘ra, jamoalar 4 daqiqa ichida binoning 6-qavatiga ko‘tarilishi, miltiqqa o‘q-dori solib, nishonni qidirib topib yo‘q qilishi kerak edi. Shu o‘rinda aytib o‘tishim kerak, biz musobaqagacha ikki hafta mobaynida mayor Shahboz Eshonqulov boshchiligida trenerimiz kapitan Azizbek Hamidov bilan bellashuv shartlariga katta tayyorgarlik ko‘rgandik. Lekin Koreyaga borib bildikki, musobaqa shartlari butunlay *(90–95 foizga)* o‘zgarib ketibdi. Ammo bundan tushkunlikka tushmadik, dovdirab qolmadik. Tezda vaziyatga moslashdik. Axir biz O‘zbekiston nomidan ishtirok etayotgandik. Bizga Vatanimiz ishonch bildiryapti! Bizning harakatlarimizga qarab, O‘zbekiston Qurolli Kuchlariga baho berishadi! Demak, qanchalik qiyin bo‘lmasin, faqat olg‘a, g‘alaba sari intilishimiz lozim edi. Jamoadoshim birinchi darajali serjant Olim Toshqorayev bilan hamjihatlikda harakat qildik va shartlarni hech bir qiyinchiliksiz uddaladik. Yakuniy natijaga ko‘ra, faxrli 2-o‘rinni qo‘lga kiritdik. 1-o‘rin mezbon jamoaga nasib qildi. Yurt ishonchini yorug‘ yuz bilan oqlaganimizdan xursandmiz.

– Ko‘pincha yosh bolalarning harakatlarini kuzata turib, negadir ularda Vatan himoyachisi bo‘lish istagimi, orzusimi tabiiy rivojlanar ekan-da, deb o‘ylab qolaman. Sizning bugungi kasbingiz ham bolalik orzularining hosilasi bo‘lsa kerak?

– Ha, men ham harbiy kasbga bolaligimdan qiziqardim. Mahallamizda shu kasbning boshidan tutgan insonlar bor edi. Ularga juda havasim kelardi. Ularning o‘zini tutishlari, ayniqsa kiyimlari menga juda yoqardi. O‘sha paytlari “Katta bo‘lganimda, men ham harbiy bo‘laman!” degan bolalik orzusida yurardim. Ulg‘ayib, maktabni tamomladim. Kollejni bitirib, muddatli harbiy xizmatga ketdim. Muddatli harbiy xizmat davomida esa shu kasbga astoydil mehr qo‘yib qoldim va hayotimni harbiy soha bilan bog‘lashga ahd qildim. Bu qarorimdan, ayniqsa dadam juda xursand bo‘lgani esimda. Chunki men oilada to‘rt o‘g‘ilning to‘ng‘ichiman. Ko‘pincha ukalar akalarga ergashadi. Shuning uchun ota-onalar to‘ng‘ich farzandlarining ukalariga har jihatdan ibrat qilib ko‘rsatishga loyiq inson bo‘lib ulg‘ayishini xohlaydi.

– Demak, siz ukalaringizga ibrat bo‘la olgansiz?!

– Qaysidir ma’noda ibrat, o‘rnak bo‘la oldim, deb o‘ylayman. Chunki mendan keyingi ukam Islomjon ham sharafli sohani tanladi. U Ichki ishlar akademiyasini tamomladi. Ayni vaqtda tergovchi bo‘lib xizmat qilyapti. Ilhomjon ukam oliy ta’lim muassasasida sirtdan tahsil oladi. Shu bilan birga, qurilish firmasida faoliyat yuritadi. Kenjamiz Rustamjon Zarkent agrosanoat kollejida o‘qiydi. U ham o‘qishdan bo‘sh vaqtlarida dadamga yordam beradi. Dadam qo‘ligul usta. Shu o‘rinda bir narsani ta’kidlab o‘tsam, o‘g‘illar hayotida otaning o‘rni bo‘lakcha bo‘ladi. Buni o‘z otam misolida bilaman. Dadamning ismlari To‘lanboy aka. Mehnatsevarlik, tirishqoqlik bizga u kishidan o‘tgan. Yana men fidoyilikni otamdan o‘rganganman. O‘zining beminnat xizmati bilan barchaning hurmatini qozongan inson ular. Shu kabi onam Malikaxon aya ham shunday go‘zal fazilatlarning egasi. Ochiqko‘ngil g‘ayratli, tinib-tinchimas onajonim haqida qancha gapirsam oz. Aslida mehr-muhabbat ona degan qutlug‘ kalom bilan yonma-yon, deb bejiz aytishmaydi-da. Bir so‘z bilan aytganda, ota-onam o‘zlaridagi eng go‘zal, eng ezgu fazilatlarni farzandlari qalbiga mehr-muhabbat bilan singdirgan. Biz har doim ularga munosib farzand bo‘lishga intilamiz.

– Harbiy xizmatda bilim, malaka va tajriba qay darajada muhim?

– Harbiy xizmatchi o‘z yo‘nalishi bo‘yicha har doim bilimini mustahkamlab, malaka va tajribasini oshirib borsa, professional harbiy xizmatchiga aylanadi. Shu kungacha armiya o‘yinlari doirasida ko‘plab xalqaro musobaqalarda ishtirok etdim. Masalan, 2020-yili Belarus Respublikasida o‘tkazilgan “Eng ilg‘or mergan” musobaqasida, 2022 va 2023-yillarda Turkiyada o‘tkazilgan “Eng ilg‘or mergan” musobaqasida jamoadoshim bilan 2-o‘rinni egallagandik. Xalqaro musobaqalardagi bu ishtirokimiz yildan yilga mahoratimizni sayqalladi, tajribali bo‘ldik. Joriy yilda yana Turkiyada o‘tkazilgan “Eng ilg‘or mergan” musobaqasida esa bilim va tajribamiz o‘z so‘zini aytdi: biz 12 ta davlatdan kelgan 38 ta jamoa orasidan g‘olib deb topildik! O‘shandagi bir holatni eslasam, haliyam hayajonga tushaman. Taqdirlash marosimida bizni katta sahnaga chaqirishdi. Mukofotlanganimizdan so‘ng davlatimiz madhiyasi yangradi. O‘sha lahzalarda vujudimni shunchalar yoqimli his chulg‘adiki, buni so‘z bilan ta’riflab berolmayman. Anglaganim, men O‘zbekiston farzandi ekanimdan, uning Qurolli Kuchlarida xizmat qilayotganimdan g‘ururlandim, iftixor qildim.

– Sharafli burchingizni o‘tashda sizga ilhom beradigan kuch nima?

– Oilamdan kuch olaman. Aynan oila insonni eng ulug‘ ishlarga, ulkan jasoratlar qilishga ilhomlantiradi. Yurt sarhadlarini himoya qilish – o‘ta mas’uliyatli, murakkab vazifa. Ammo oila bag‘riga qaytib, farzandlarimning mamnun qiyofalarini ko‘rishim bilan bor charchoqlarimni unutaman. Men uch nafar qizning otasiman. Zahroxon, Shahnozaxon va Nozimaxon – hayot quvonchim, urib turgan yuragim, olayotgan nafasim. Farzandlarimning kamoli, ota-onamning salomatligi, ukalarimning omonligi, rafiqamning muhabbati – ulug‘ yurtim himoyasida hamisha hushyor bo‘lishga, sadoqat bilan xizmat qilishga chorlaydi.

– Sizningcha, hayotning mazmuni nimada?

– Yurt yukiga yelkadosh bo‘lish, el koriga yaraydigan farzandlar tarbiyalash, ota-onang yuzini yorug‘ qilib, Vatan ishonchini oqlash – bu mening hayotimning mazmuni.

Podpolkovnik Gulnora XODJAMURATOVA suhbatlashdi.

FALSAFA

HARBIY FAOLIYAT ASOSI SIFATIDA



Harbiy ta’lim tizimida falsafa o‘ziga xos muhim o‘rin egallaydi. Falsafa o‘zida davrning ma’naviy mohiyatini aks ettirib, harbiy ilm va amaliyot muammolarini hal qiluvchi metodologik asos hisoblanadi. U boshqa fanlardan farqli ravishda jamiyat va shaxsning fundamental asoslarini tashkil etuvchi umumiy dunyoqarash muammolarini tizimlashtiradi va voqelikni tanqidiy anglash imkonini beradi.

Faoliyatning har qanday sohasida bo‘lgani kabi harbiy sohada ham bo‘lajak mutaxassisning harbiy-kasbiy sifatlarini shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi. Falsafa bo‘lajak ofitserlarning amaliy faoliyatining turli sohalarida harbiy-kasbiy vazifalarni bajarishga tayyorgarligi va qobiliyatini shakllantirishga asosiy urg‘uni beradi. Harbiy xizmatchi professional narsa va hodisalar mohiyatiga chuqur kirib borishi, mustaqil va operativ fikrlashi, nostandart vaziyatda to‘g‘ri qaror qabul qilishi, bo‘linmani mahorat bilan boshqara olishi, tashabbuskor va ijodkor bo‘lishi kerak. Bu sifatlarni esa falsafiy bilimlarsiz shakllantirib bo‘lmaydi. Falsafa fanlar uchun, amaliy hayot uchun metodologik yo‘nalish beruvchi, umumlashtirish orqali yetuk xulosalar qiluvchi universal fan. Donolik, adolatlilikning timsoli bo‘lgan falsafiy xulosalar hamma vaqt axloqiy qadriyatlar mezoniga muvofiq keladi.

Ta’kidlash kerak, Aleksandr Makedonskiy erishgan barcha g‘alabalarning boshida Antik davrning buyuk faylasufi Aristotel turadi. Qadimgi yunon faylasufi harbiy sohaning mutaxassisi bo‘lmagan, ammo Aleksandr Makedonskiyning ustozi sifatida, unda yuksak madaniyat va dunyoqarashni shakllantirishga erishgan. Ayni mazkur xususiyat mashhur sarkarda va qo‘mondonlarning kasbiy madaniyati va yutuqlarining poydevori bo‘lib xizmat qilgan.

Falsafiy bilimlar zamonaviy talablar asosida olamning ilmiy manzarasini, harbiy-kasbiy faoliyat xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim oluvchilarda fikrlash va amaliy faoliyatning metodologik madaniyatini shakllantiradi. **Falsafa harbiy soha bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, unga nisbatan metodologik va dunyoqarashlik tabiatdagi funksiyalarni bajaradi.** Harbiy xizmatchi falsafiy, metodik tayanchga ega bo‘lmay turib, jamiyat va harbiy sohada bo‘layotgan o‘zgarishlarni obyektiv baholay olmaydi.

Tarix ko‘rsatmoqdaki, ko‘plab sarkardalar va qo‘mondonlar o‘zining harbiy amaliy faoliyatida ham stixiyali, ham ongli ravishda falsafiy bilimlarga tayangan, harbiy jarayon va hodisalarni tahlil qilgan. Misol uchun, Sunszi, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Aleksandr Makedonskiy, Napoleon, A.V. Suvorov kabilarni eslab o‘tishning o‘zi yetarli. **Mashhur qo‘mondonlarning tajribasidan kelib chiqib, aytish mumkinki, qo‘shinni boshqarishda falsafiy metodologiya asoslariga tayanish va buni ongli amalga oshirish lozim.** O‘z davrining buyuk sarkardalaridan biri Aleksandr Makedonskiy ustozi Aristotelning falsafasi unga ulkan ta’sir ko‘rsatganini ko‘p bora ta’kidlab, “Ustozim Aristotelni otam kabi hurmat qilaman, negaki otamdan hayot bergani uchun, ustozimdan erishgan barcha yutuq, zafarlarim uchun qarzdorman”, degan edi sarkarda.

Ayni paytda ko‘plab faylasuflar o‘zining fuqarolik burchini bajara turib, harbiy amaliyotdan yiroq emasligini ko‘rsata oldi *(Konfutsiy, Suqrot, Aflotun, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Ahmad Donish va boshqalar).* Jumladan, Ksenofont Afinskiy “Otliq qo‘shinni boshqarish to‘g‘risida”, N. Makiavelli “Harbiy san’at to‘g‘risida”, G.V. Plexanov “Urush to‘g‘risida”, Zahiriddin Muhammad Bobur “Harb ishi” kabi asarlar yozgan. Sekin-astalik bilan falsafiy bilimlar tizimida “urush falsafasi”, “armiya falsafasi”, “harbiy faoliyat falsafasi” kabi o‘ziga xos maxsus sohalar paydo bo‘lgan.

Urush hodisasiga falsafiy yondashuvni aks ettirgan ilk manbalardan biri qadimgi Xitoyning “Yetti kitobi” bo‘lib, ulardan biri harbiy nazariyotchi, sarkarda Sunszi *(er. av.VI-V asrlar)* tomonidan yozilgan “Harbiy strategiya” *(“Urush san’ati” sifatida mashhur)* hisoblanadi. Asarda qurolli kurash olib borishning muhim asoslari, urushning qarama-qarshi tabiati tadqiq etilgan, uning ayrim umumiy qonunlariga ta’rif berilgan. U harb ilmining predmeti va mazmuniga urushda amal qiluvchi asosiy unsurlarni kiritadi, bular: vaqt, joy, sarkarda faoliyati, armiyaning tashkiliy tuzilishi, jangovar harakatlarning usullari va shakllaridir.

Sohibqiron Amir Temur tashkil qilgan qudratli va intizomli qo‘shin jahonning ko‘zga ko‘ringan harbiy nazariyotchilari, buyuk sarkardalari, tarixchi olimlari tomonidan e’tirof etilib, bir necha asrlar davomida andaza vazifasini o‘tadi. **Amir Temur “Tuzuklar”da adolatni himoya qiluvchi, so‘zi bilan ishi bir, kechirimli, dovyurak, zo‘r tadbirlar sohibi, mohir sarkarda, ulug‘ rahbar sifatida namoyon bo‘ladi.** Davlat ishlarining to‘qqiz ulushini kengashga qo‘yadi, faqat bir ulushini qilichga qoldiradi. Ko‘ngli buzuq kimsalarni majlisga yo‘latmaydi, balki uzoqni ko‘rib ish yurituvchi, keksa va tajribali kishilar suhbatidan bahramand bo‘ladi.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko‘rish mumkinki, falsafa harbiy sohaning nazariya va amaliyoti bilan dialektik bog‘liq bo‘lib, har ikki tomon bir-biriga ta’sir va aks ta’sirda bo‘ladi. Falsafa o‘zining mazmuni bilan harbiy soha, harbiy qurilish, harbiy xizmatchilarning ta’lim va tarbiyasi, o‘tmish bilan bugunni baholash, kelajakni bashorat qilish, harbiy fanlarning nazariy va amaliy muammolariga javob topib, haqiqatga erishishiga yordam beradi. U bugungi kunda dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari va harbiy soha rivojining istiqbollarini falsafiy umumlashtirish va anglash, davlatning harbiy siyosati va mudofaa doktrinasini ishlab chiqish va yuritish, Qurolli Kuchlarni modernizatsiya qilish yo‘nalishlarini optimallashtirish, mamlakatimizning harbiy xavfsizligini mustahkamlash va shu kabilarni amalga oshirish imkonini beradi.

Zamonaviy sharoitlarda harbiy qurilish sohasidagi masalalarni hal qilishda falsafaning ta’siri ikki asosiy yo‘nalishda yaqqol namoyon bo‘ladi. **Birinchidan**, bu harbiy-ijtimoiy voqelikning hodisa va jarayonlari tahliliga falsafiy mazmunning ta’sirini o‘z ichiga olib, natijada ofitser kadrlarda olamni ilmiy anglash, harbiy qurilish sohasidagi muammolarni ijobiy hal qilish qobiliyati yuzaga keladi. **Ikkinchidan**, harbiy-ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida shakllangan kasbiy kompetensiyalari dunyoqarashlik tabiatiga ega bo‘lib, harbiy xizmatchilarning muayyan falsafiy *(metodologik)* tayyorgarligini nazarda tutadi. Boshqacha aytganda, falsafa harbiy sohaning, harbiy faoliyatning metodologik asosi bo‘lib maydonga chiqadi.

Ayni paytda, nafaqat falsafa harbiy sohaga ta’sir ko‘rsatadi, balki harbiy soha ham falsafiy muammolarning mazmuni va rivojiga, shubhasiz ta’sir ko‘rsatadi. **Birinchidan**, harbiy soha falsafiy umumlashmalar uchun konkret material beradi. Masalan, tarix va hozirgi kunga nisbatan keng dunyoqarashsiz harbiy nazariyotchilar, qo‘mondonlar davlatning mudofaa qobiliyati hamda inson va jamiyatning xavfsiz mavjud bo‘lishini ta’minlash bo‘yicha nazariy va amaliy tavsiyalarni aniq shakllantira olmaydi. Biroq aniq shakllantirilgan xulosa, g‘oya va nazariyalar harbiy kadrlarning predmetli-amaliy faoliyatiga singib borib, davlatning milliy xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha ijtimoiy rivojlanishning, harbiy sohaning, harbiy kadrlar faoliyatining real kuchi va omili sifatida namoyon bo‘ladi. **Ikkinchidan**, jamiyat hayotida harbiy soha falsafaning diqqat-e’tiborini talab qiluvchi va buning natijasida uning amal qilish sohasini kengaytiruvchi bir qator metodologik muammolarni vujudga keltiradi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning xalqaro terrorizm va ekstremizmga qarshi harakati va shu asosda ularga qarshi kurashda qat’iy choralar izlash, zamonaviy harb ilmining rivoji va uning tarkibiy qismlari, hozirgi zamon global muammolarini hal qilish kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

Falsafa bilan harbiy sohaning chinakam bog‘liqligi umumiy falsafiy tamoyillar asosida amalga oshadi. Falsafa harbiy xizmatchining dunyoqarashini shakllantirish, harbiy sohaning turli masalalarini hal qilish yo‘llarini topishda faol ishtirok etadi. **Dunyoqarash har bir harbiy xizmatchi, ijtimoiy guruh, harbiy bo‘linmalar faolligining strategik omili, butun shaxsiy tarkibning o‘ziga xos ma’naviy rahnamosi sanaladi.** Harbiy xizmatchi ma’naviy olamida dunyoqarash – subyektning o‘ziga va yaqinlariga, tabiiy va ijtimoiy muhitga nisbatan munosabatini belgilovchi, faoliyatiga motiv beruvchi omil bo‘lib, u voqelikni to‘g‘ri in’ikos ettirsa, harbiy mutaxassis faoliyatining mustahkam tayanchi bo‘lib xizmat qiladi.

Falsafiy tafakkur harbiy insonga o‘tmishni bilish va baholash, bugunni anglash, voqelikni amaliy o‘zgartirish, jamiyat va armiyadagi ijtimoiy hodisa va jarayonlar mohiyatini bilish, istiqbolni bashorat qilishlariga yordam beradi. Shuningdek, zamonaviy dunyoning murakkab hayotiy qiyinchiliklariga duch kelgan insonga vaziyatni to‘g‘ri baholab, to‘g‘ri mo‘ljal olishiga, uning xulq-atvori va faoliyatini ham ilmiy bilish, ham amaliyot sohasida yo‘naltirib turishiga qaratilgan.

Xullas, falsafa harbiy mutaxassisni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash va rivojlantirishning muhim omili bo‘lib, shaxsiy, kasbiy, ijtimoiy muammolarni hal etishda metodologik yondashishni taqozo etadi. **Falsafa harbiy insonni fikrlashga, voqea-hodisalarga tanqidiy qarashga, ijtimoiy voqelikdagi turli jarayonlarga baho berishga, borliqdagi rang-barang hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni aniqlashga, o‘z tanlovini amalga oshirishga o‘rgatadi.** Mazkur sifatlar har bir insonga zarur, biroq kasbi ona Vatan himoyasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan shaxslar uchun, ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

M. NOMURATOVA,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
Milliy iftixor va harbiy-vatanparvarlik kafedrasi dotsenti

TARBIYA VA USTOZ MARTABASI



Har qaysi buyuk davlat yoki hukmdorning boshqaruvi davrida siyosiy va harbiy hokimiyatni yanada mustahkamlash maqsadida o‘zining qonunlar to‘plamini joriy etgan. Sohibqiron Amir Temur ham o‘zining “Temur tuzuklari” asarida davlat boshqaruvining ustuvor vazifalarini, odilona siyosatini yoritib bergan.



“Temur tuzuklari”ni o‘rgangan ko‘plab olimlar uning ta’rifi sifatida Yevropa davlatlaridan 500 yillar oldin aynan Turkistonda konstitutsiyaviy qonunlar to‘plami asosida davlat boshqaruvi amalga oshirilgan deb ta’kidlaydi. Uning ilk nusxasi eski o‘zbek tilida yozilgan. Temur vafotidan so‘ng turli davrlarda hukmdorlar tomonidan mohir kotiblarga “Temur tuzuklari”dan o‘zlari uchun nusxa ko‘chirtirishlar buyurilgan. Bundan tashqari, Angliyaning Oksford shahrida 1783-yil ingliz mayorlari Uayt va Devi tomonidan “Temur tuzuklari” ingliz tiliga tarjima qilindi. 1967-yilda asar ilk bor o‘zbek tiliga Alixonto‘ra Sog‘uniy tomonidan tarjima qilinadi. Alohida kitob shaklida esa 1991-yilda nashrdan chiqariladi.

Ikki qismdan iborat “Temur tuzuklari” asari “Tuzuki Temur”, “Tuzukoti Temur” nomlari bilan ham atalgan. 56 ta banddan iborat “Temur tuzuklari” tarixiy va huquqiy asar hisoblanadi. Asarning birinchi qismida sohibqiron hayoti, Movarounnahrda markazlashgan davlat barpo etishi, 27 davlatni o‘z davlati tarkibiga kiritishi va bu davrning buyuk hukmdorlari *(Oltin O‘rda hukmdori To‘xtamish, turk sultoni Boyazid Yildirim)*ga qarshi harbiy yurishlar bayon etilgan.

Asarning ikkinchi, asosiy qismida esa davlatni qanday idora etish va bu yo‘lda kimlarga tayanish, vazir va harbiy amaldorlarni tayinlash, ularning vazifalarini belgilash, armiya tuzish, jang olib borish taktikasi, qo‘shin boshliqlari va sipohiylarning burch va vazifasi, “Ustoz-shogird” an’anasi namuna sifatida berilgan. Mazkur asardagi Temur qalami bilan yozilgan *“Saltanat ishlarining to‘qqiz ulushini mashvarat, tadbir va kengash, qolgan bir ulushini esa qilich bilan bajo keltirish zarur”* iborasi hozirgi zamon butun dunyo davlatlari uchun ham muhim ko‘rsatma sifatida xizmat qila oladi.

Davlat boshqaruvi ishlariga hamisha alohida e’tibor qaratgan Amir Temur o‘z asarida *“Davlat ishlarini saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda boshqardim. To‘ra va tuzukka tayanib saltanatda o‘z martaba va maqomimni mustahkam saqlab turdim”* deydi. Temur boshqaruv davrini o‘rgangan fransiyalik olim Alfons de Lamartin *“Yevropa na Iskandarda, na Attilada va na Moskoviya zafarini quchgan yangi fotih Napoleonda adolatli qonunlar asosiga qurilgan bunday boshqaruvni bunyod etgan emas”* deb ta’kidlaydi.

Davlat boshqaruvida siyosiy hayot ustuvor vazifa hisoblanilardi. *“Ishlarimning barini kengash bilan yurgizib, uni bitirishda to‘g‘ri tadbir qo‘llar edim. Bir ishga kirishmay turib, undan chiqish yo‘llarini o‘ylab qo‘yar edim. Uni to‘g‘ri tadbir, qat’iy jazm, sabr-chidam ko‘rsatib, ehtiyotkorlik bilan uzog‘ini o‘ylab, ortini esdan chiqarmagan holda oxiriga yetkazardim”*, deb ta’kidlaydi “Temur tuzuklari” asarida.

Siyosiy hayotni yanada mustahkamlash maqsadida Amir Temur qo‘shni davlatlar bilan doimiy aloqalar o‘rnatgan. Bosib olingan yangi yerlarni obod qilish, shaharlar barpo etish ishlariga alohida e’tibor qaratgan. Va bu ishlarda jonkuyarlik ko‘rsatgan xalq vakillariga imtiyozlar ham berib borgan. *“Kimki biron sahroni obod qilsa yoki yerosti suvlarini tortib oladigan inshoot qursa, yo biron bog‘ ko‘kartirsa yoxud biron tashlandiq yerni obod qilsa, faqat yerni o‘zlashtirganning uchinchi yili (dastlabki ikki yil to‘lamagan) qonun doirasida xiroj solig‘i olingan”*, deb yoziladi Temur tuzuklarida.

Tarixiy manbalarda Amir Temur yuksak tarbiyali va kuchli bilimga ega shogird sifatida e’tirof etilgan. Sohibqiron doimo uch shayxga nisbatan ixlosi juda baland bo‘lib, ularni o‘ziga pir *(ustoz)* sifatida ko‘rgan. Har ishni boshlashdan oldin ulardan maslahat olgan. Bular – Shamsiddin Kulol, Sayyid Baraka va Zayniddin Tayobodiylardir. Amir Temur ustozlaridan saltanat ishlarida, davlat boshqaruvida, din masalalarida ikkilanib qolsa, albatta har doim ularga maktub yo‘llab, to‘g‘ri yo‘lni tanlashda maslahatlashgan. Masalan, Chingizxon avlodlaridan bo‘lgan Tug‘luq Temurxon Movarounnahrga yurish qilganda, ko‘plab mahalliy hukmdorlar Xuroson tomonda chekinadi. Shunda sohibqiron ikkilanib, piridan maslahat so‘raganida, unga quyidagi mazmunda javob maktubi keladi: *“Tug‘luq Temurxonning oldiga borgil va qo‘lidagi o‘q-yoyini tortib olg‘il”*. Amir Temur ustozi ta’kidlagan maslahatga amal qiladi va qisqa fursat ichida mo‘g‘ullarni yengib, bu hududni tark etishga majbur qiladi.

Davlat boshqaruvi tizimida o‘sha davrda butun dunyoga namuna bo‘lgan Amir Temurning saltanat ishlarida doimo to‘rtta narsaga amal qilishi ham bevosita uning ustozi bilan bog‘liq: *Pirim, Zayniddin Abubakr Tayobodiy menga yozmishlarkim: “Abulmansur (lug‘aviy ma’nosi: “zafar, g‘alaba qozonuvchi”, ulamo va mashoyixlar tomonidan Amir Temurga berilgan faxrli nom) Temur, saltanat ishlarida to‘rt narsaga amal qilgin, ya’ni:*

1) o‘zing bilan kengash;

2) boshqalar bilan mashvarat-u maslahat ayla;

3) hushyorlig-u mulohazakorlik bilan qat’iy qaror chiqar;

4) ehtiyotkor bo‘l.

Sohibqiron ba’zi hollarda ustozlariga nisbatan hatto itoatkor ham bo‘lgan. Buni esa “Temur tuzuklari”da keltirilgan pirining maktubiga javoban Amir Temurning bildirgan ushbu so‘zlarida ko‘rishimiz mumkin: *“Pirimning ushbu maktubi menga yetgach, unda buyurilgan har bir narsani bajo keltirdim. Saltanatim ishlarini tartib-intizomga solib, saltanatim martabasiga to‘ra va tuzuk bilan zeb-u ziynat berdim. Saltanatimni o‘n ikki toifadagi kishilar bilan mustahkamladim. Saltanatim martabasi bo‘lmish to‘ra-tuzuklar va qonun-qoidalarni ham shu o‘n ikki toifaga bog‘lab tuzdim. Bu o‘n ikki toifani saltanatim falakining o‘n ikki burji va davlatim korxonasining o‘n ikki oyi deb hisobladim”*. Bulardan ko‘rinib turibdiki, Amir Temur har ishni ustozlari bilan bamaslahat amalga oshirgan. Ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lganligi uchun ham sohibqiron tuzgan davlat rivojlangan va bu davlat turli ichki xiyonatkorliklardan yiroq bo‘lgan.

Shu bilan bir qatorda Amir Temurni o‘z pirlarining davomchisi sifatida talabchan, yetuk saviyaga ega va mehribon ustoz sifatida ham ta’kidlash joiz. Amir Temurning jami 313 ta shogirdi bo‘lganligi ta’kidlanadi. Hatto buyuk sarkarda, Temur va temuriylar saltanatining sadoqatli jangchisi amir Shohmalikni ham aynan Amir Temur tarbiyalagan. Uni yoshligidan kuchli harbiy salohiyat va sadoqatga o‘rgatgan.

Amir Temur boshqaruvi davrida unga qo‘shni bo‘lgan yurtlarda o‘z davrining buyuk imperiyalari va imperatorlari hukmronlik qilar edi. Ayni shu sababli ham Temur harbiy siyosatga o‘zi boshchilik qilar, haqiqiy vatanparvar askarlarni o‘zi saralardi. *“Kimning ahdi va shijoatini sinov tarozusida tortib ko‘rib, boshqalarnikidan ortiqrog‘ini ko‘rsam, uni tarbiyamga olib, amirlik darajasiga ko‘tarar edim. So‘ngra ko‘rsatgan xizmatlariga yarasha martabasini oshirib borardim”*. Agar shogirdlari noto‘g‘ri yo‘ldan borsa yoki qaysidir o‘rinda Temurga bo‘ysunmasa, Amir Temur ularni keskin jazolamay, ularga imkon bergan. “Temur tuzuklari” dagi shogird-u lashkar tarbiyasiga oid Amir Temurning quyidagi fikrlarini alohida e’tirof etish joiz. *“Begiga e’tiqodi kuchli navkar ulkim, uning og‘ir-qattiq e’tirozli so‘zlaridan ranjib, ko‘nglida kek saqlamaydi. Begidan tanbeh eshitsa, o‘zini aybdor deb biladi. Bunday navkar ta’min-u tarbiyaga loyiqdir”*.

Sipohiylarni tarbiyalash masalasiga keladigan bo‘lsak, Amir Temur *“Sipohiylarim bilan qanday muomala qilishim to‘g‘risida fikr yurgizib, qaysi birini qanday tarbiyat qilishim kerak, qaysi ishni qay biriga topshirsam, xato qilmagan bo‘laman deb, har ishning oldi-ketini o‘ylar edim”*, deb ta’kidlaydi.

Sohibqiron Amir Temurdek ustoz va murabbiylar e’zozlangan har zamon va makonda yurtning kelajagi porloq, yoshlarining ilmi va dunyoqarashi yetuk bo‘lishi aniq. Shuningdek, hozirgi yosh avlodni chin vatanparvar qilib tarbiyalashda Amir Temur shaxsini har doim namuna sifatida ta’kidlasak, o‘rinlidir. Nafaqat harbiy bo‘lish istagi bor yoshlar, balki har bir o‘quvchi–kitobxon “Temur tuzuklari”ni o‘qib chiqishi lozim! Shu asosda ularda Vatanga muhabbat, ertangi kunga nisbatan aniq maqsad shakllanadi.

Zavqibek MAHMUDOV,
O‘zbekiston Fanlar akademiyasi
Tarix instituti kichik ilmiy xodimi

Askar bo‘lar yigitning mardi

JASORATNI YURAGIMGA JAMLAYMAN

Vatan himoyachisi bo‘lish har bir er yigitning bolalikdagi orzusi hisoblanadi. Ushbu orzusi sari shaxdam qadam tashlab, askarlik maqomiga erishgan o‘g‘lonlar armiya saflarida toblanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi harbiy aviatsiya instituti ilmiy vzvodi shaxsiy tarkibida muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan yigitlar shular jumlasidan.



Namangan muhandislik-qurilish institutining Yerusti transporti tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi yo‘nalishini tamomlagan **Ibrohimjon Abdumalikov** Namangan viloyati Chust tumanidan muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan.

Har ishga chin dildan va mas’uliyat bilan yondashuvchi Ibrohimjon muddatli harbiy xizmatni boshlaganidan hozirga qadar qisqa vaqt ichida ustozlaridan harbiy aviatsiya qurollari bo‘yicha ko‘plab bilimlarni o‘rgangani va shu bilimlarga tayangan holda professor-o‘qituvchilar bilan birgalikda kursantlarning sifatli ta’lim olishlari va o‘qib-izlanishlari uchun laboratoriya stendlari, o‘quv qo‘llanmalar ishlab chiqqanining guvohi bo‘ldik. Harbiy bilim va ko‘nikmalarni o‘rgatgan ofitser va serjantlar qahramonimizning iqtidori va intiluvchanligini alohida e’tirof etadi.

– Men tahsil olgan oliy ta’lim muassasasi va harbiy aviatsiya institutidagi muhit o‘rtasida juda katta farq bor, – deydi oddiy askar I. Abdumalikov. – Bu yerdagi harbiy intizom, qat’iy tartib, kursantlar ko‘zidagi faxr-iftixorni ko‘rib, mening va safdoshlarim qalbida Vatanga muhabbat hissi yanada jo‘sh urdi. Menga bolaligimdan oila, mahalla, yurtni himoya qilishni o‘rgatib, vatanparvarlik ruhini singdirgani, ta’lim-tarbiya bergani uchun ota-onamga, harbiy bilimlarni o‘rgatgan komandirlarimga, ilmiy izlanish yo‘lidan borishimda ko‘makchi bo‘layotgan mayor M. Qodirov hamda podpolkovnik D. Bobomurodovga chuqur minnatdorligimni bildiraman. Ularning yuzini hamisha yorug‘ qilishga va’da beraman.

Oddiy askar I. Abdumalikov kelgusi hayotini sharafli kasb bo‘lgan Vatan himoyachisi sifatida davom ettirmoqchi. Ibrohimjon hayot sinovlarida ortga chekinmay, dadil harakat bilan, albatta maqsadiga erishadi.

“OTAMNING ORZUSI USHALDI”



Farg‘ona viloyati Rishton tumanidan muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan oddiy askar **Abduhayo Yo‘ldoshev**ning bugungi xizmatidan mamnunligini porlab turgan ko‘zlari va o‘ziga nisbatan ishonchidan anglab olish qiyin emas.

Xizmatga qadar Farg‘ona politexnika institutini a’lo baholarga tamomlab, Toshkent viloyatida joylashgan “Berad Tech” qo‘shma korxonasida konstruktor lavozimida ishlagan Abduhayo ayni kezda O‘zbekiston Respublikasi harbiy aviatsiya institutida ilmiy vzvod tarkibida o‘zining Vatan oldidagi yigitlik burchini o‘tamoqda. Oliy ta’lim muassasasini texnika yo‘nalishida tamomlagani hamda keyingi faoliyatini konstruktor sifatida davom ettirgani bugungi kunda unga Harbiy aviatsiya instituti Uchish apparatlari va dvigatellariga texnik xizmat ko‘rsatish kafedrasidagi laboratoriya-sinov ishlarida qo‘l kelmoqda.

Harbiy xizmatchining metin irodasi, mardonavor jasoratini kitoblarda o‘qigan oddiy askar A. Yo‘ldoshev ayni daqiqalarda yoshlik tasavvuridagi qahramoni qiyofasini shaxsan o‘zi gavdalantirib turibdi. Harbiy xizmat mashaqqatlarini yengib o‘tishida, jangovar tayyorgarlik mashg‘ulotlarini puxta egallashida vzvod komandiri podpolkovnik Sh. Yelmuratov, tadqiqot ishlarini olib borishda esa Uchish apparatlari va dvigatellarining tuzilishi va ekspluatatsiyasi kafedrasi boshlig‘i o‘rinbosari, texnika fanlari nomzodi podpolkovnik O. Shonazarov yaqindan yordam berib kelmoqda.

– Harbiy xizmatga qiziqishimga otamning kasbi ma’lum darajada turtki bo‘lgan, chunki padari buzrukvorim maktab direktorining ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari bo‘lgan va har doim vatanparvarlik nechog‘li sharafli tuyg‘u ekanini bolaligimdan o‘rgatgan. Ammo o‘zi harbiy xizmatchi bo‘lish orzusiga erisholmagan, – deydi oddiy askar A. Yo‘ldoshev. – Dadamning orzusi farzandlarida ro‘yobini topdi, armonga aylanmadi.

Qahramonimiz Vatan oldidagi burchini bajarishni astoydil xohlab, egniga harbiy libosni kiyish baxtiga muyassar bo‘ldi. Endilikda u orzulari sari shaxdam qadam tashlab, kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchi sifatida O‘zbekiston Respublikasiga sadoqat bilan xizmat qilishni maqsad qilgan.



MASHAQQATLAR KOR QILMAS

Andijon viloyati Baliqchi tumani Nurafshon qishlog‘ida tavallud topgan muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar **Otabek Abobakirov** haqida safdoshlari ancha iliq fikrlar bildirdi. Suhbatdoshimiz yurtimiz mudofaasining barcha mashaqqat-u qiyinchiliklarini mardonavor yengib o‘tishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Otabek yoshligidan harbiy bo‘lishni orzu qilgan. Maktabni tugatgach, o‘z qiziqishi yo‘lidan borib, Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universitetining Jismoniy madaniyat fakulteti talabasiga aylandi. O‘qish davomida Otabek sportning qo‘ljangi turi bilan muntazam shug‘ullangan. Harbiylik kasbiga qiziqish uni O‘zbekiston Respublikasi harbiy aviatsiya instituti tomon chorladi.

Oddiy askar O. Abobakirovning aytishicha, bobosi Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani bosh qahramonidan ilhomlangani bois u kabi yurtparvar, haqiqatni sevuvchi va chinakam diyonatli inson bo‘lsin, deya o‘z nabirasiga “Otabek” ismini qo‘ygan ekan.

Xizmati davomida komandir va boshliqlar tomonidan qo‘yilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida bajargani, shijoati, tirishqoqligi tufayli Otabek ustozlari nazariga tushdi. Safdoshlar orasida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan O. Abobakirov Harbiy aviatsiya institutining Aviatsiya mutaxassislarini tayyorlash va malakasini oshirish fakultetida xizmatini ilm-fan bilan bevosita bog‘lash maqsadida fakultetning professor-o‘qituvchilariga biriktirilgan. O‘z xizmati davomida beshdan ortiq ilmiy maqola chop etgan. Uchish apparatlariga bo‘lgan qiziqishi tufayli kichik modeldagi uchuvchisiz uchish apparatlari yasash va ularni uchirish bilan shug‘ullanib kelmoqda.

Otabek institutda o‘tkazib kelinayotgan ommaviy sport o‘yinlarida faol qatnashadi. U sport yo‘nalishida magistratura bosqichini ham tamomlab, Qurolli Kuchlar safida mustaqil Vatanimiz himoyasi uchun sadoqat bilan xizmat qilish niyatida. Iqtidorli askarga kelajakdagi orzulari ro‘yobini tilaymiz.

Kapitan Elyor XOLMATOV

O‘G‘LAR KUL BOSGANCHI

(Davomi. Boshi o‘tgan sonlarda)

(HUJJATLI QISSA)

Volidayi muhtaramam Boqiyaxon Rahmonberdi qizining yorqin xotirasiga bag‘ishlayman.

Kitob varaqlaydi saksoningiz ham,
Sasingiz sehrini suyib kelar Haq.
Avliyo degani Sizdirsiz, onam,
Sizdaylar jamlansa, yaraladi xalq...

***

Ikki kundan buyon Abdulaziz akasi uyga kelmayapti. Dadasining nega xavotir olmayotgani qiziq. Boqiyaxon so‘rasa, “kelib qoladi”, deydi nuqul. Qayoqqa ketdiykin? Boqiyaxonni sog‘inmaydimi? Boqiyaxon esa akasini sog‘inib bo‘ldi. Oysha onasi ham kecha bir nechta tugunlarini ko‘tarib ketdi. Boqiyaxon qayoqqa, deb so‘ramadi. Oysha ona ham aytmadi. Kelarmikin?! Uyam kelmasa, endi kim ovqat pishiradi, kim kir yuvadi? Boqiyaxonning birdan yig‘lagisi keldi. Oysha ona mening uni yaxshi ko‘rmaganimni bilib qoldimikin? Shunga ketgan bo‘lsa-ya?!

– Boqibilloxon, kiyimlaringiz, kitob-u qo‘g‘irchoqlaringizni to‘plang, qizim. Kattaroq ro‘molga tugamiz, – dedi mutolaa hujrasidan bir dasta kitoblarini ko‘tarib chiqqan dadasi. – Ketamiz!

– Nimaga, dada? Qayoqqa? Akam kelmadiku hali.

– Akangiz kelsa, bizning ketimizdan boraveradi.

– Oysha onam-chi?

– U to‘rt-besh kun dadasinikida turadi. Gapni ko‘paytirmang-da, tezroq aytganimni qiling, qizim.

Dadasi hujrasidan chiqqan bir nechta kitoblari, kiyim-kechaklari tugilgan ikki katta tugunni ayvonga qo‘ydi...

– Bo‘ling, bo‘la qoling, qizim! – keskin qaradi dadasi. – Hamma narsangizni bir joyga jamlang. Bir tugun qiling.

Boqiyaxon hech narsaga tushunmay, dahlizli uyga kirib, dadasining aytganlarini bajara boshladi. Yana yig‘lagisi keldi. Buvisi o‘lmaganda shunaqa bo‘lmasdi. Ana, dadasi ko‘rpa-bolishlarni, to‘shaklarni ham o‘rab, tugunlar yoniga qo‘yyapti.

– Ko‘chamizmi, dada?

– Ko‘chadigan bo‘ldik.

– O‘rtoqlarim bilan xayrlashmadim-ku?! Hech bo‘lmasa, Arofatga aytib chiqay. Boshqalarga u aytadi ko‘chib ketganimizni.

– Yo‘q, qizim! Hech kimga aytmaymiz. Shundoq, birpasda ketib qolamiz. Tezroq bo‘ling.

Ularning bu taxlit ko‘chib ketishlarini hech kim bilmagani ma’qul. Aytib bo‘lmaydi axir. Qizi buni qaydan tushunardi?! Xafa bo‘lib, yig‘lamsirab turibdi. Vaqt shomga yaqinlab, qorong‘i tusha boshlaganda ota-bola bir soyabon aravagina yuk bilan yo‘lga chiqdi. Shu ketganlaricha tuya o‘rkachiday baland-past adirlardan o‘tib, Xo‘jaobod yo‘lidagi Rayish qishlog‘iga kirib keldilar. Bu qishloqda Rahmonberdi qorining bir muridi yashaydi. O‘sha muridining uyini qora tortib borayotgan qori dadaning ko‘ngli kecha zulmatidan ham qorong‘iroq edi. Boqiyaxonni uyqu elitib, dadasining tizzasiga bosh qo‘yib, uxlab qoldi. Bor-yo‘g‘i o‘n yoshga yetgan qiz kecha militsiyada ishlovchi Mirzaqosim otasini yana bir shumxabardan ogohlantirganini bilmasdi.

– Qori dada, bu yerdan tez ketganingiz ma’qul, – dedi u. – Sizni ukangiz-u o‘g‘lingizni qochirib yuborgan, deya jinoyatchilar ro‘yxatiga qo‘yishdi. Meni ham chaqirib, sizning mahallangizdagi ishlar bo‘yicha ancha-muncha narsani so‘rashdi. Erta-indin hibsga olish uchun kelib qolishsa kerak. Bir falokat boshlanmay, keta qoling, qori dada. Hibsga olinganlarning hech biri uyiga qaytgani yo‘q. Yo qamoqqa, yo o‘risning uzoq yurtiga surgunga jo‘natilyapti.

Rahmonberdi qori Xudoning yozig‘ini ko‘rishdan qo‘rqmaydi. Faqat uni hibsga olsalar, qizi hech kimsasiz yetim bo‘lib, bir o‘zi qanday yashaydi? U shuni o‘ylab, Rayish safarini rejaladi. Bu kichkina qishloqni topisholmas degan umid bilan o‘sha yerda jon saqlab turishni mo‘ljalladi.

Chindan ham Rahmonberdi qorining Rayishga ketgani militsiyaga ancha vaqtgacha ma’lum bo‘lmadi. Ammo qori dadaning ilmiga ixlos qo‘ygan odamlar ko‘p edi. Kulla qishlog‘idan, Shirmonbuloqdan, Buloqboshidan unga murid bo‘lganlar so‘rab-surishtirib, uni Rayishdan topib kelib yurdilar. Xufiya bo‘lsa-da, qori dadadan ilm o‘rganuvchilar ham kun sari ko‘payib qoldi. Bir necha yil “quvdi-qochdi”lardan xoli o‘sha qishloqda tinchgina atala yovg‘onini pishirib, tanishining bir hujrasida yashadilar.

Ammo buni ham rasmiylarning iskovuchlari bilib qolibdi. Hushyor Mirzaqosim boyaqish tezgina Rayishga xabar jo‘natib, yana ogohlantirdi. Xabar olib kelgan odam o‘zining yaqinlaridan biri – avval masjidda mutavalli bo‘lib ishlagan shogirdi edi.

– Endi qayerga qochasiz, ustoz? – ko‘zlari javdirabgina dedi u. – Keksaygan paytingizda qamoq yo surgunda joningiz uvol bo‘ladi.

– Xabar keltirib, ulug‘ ish qilibsiz. Qizimni biror bexavotir joyga olib borishga ulguraman. O‘zim esa...

– Biror joy bormi?

– Mening Xudoning huzuridan boshqa boradigan joyim qolmadi, inim. Faqat sizdan bir iltimosim bor.

– Ayting, ustoz.

Qori dada yaktagining ichki cho‘ntagiga qo‘l solib, bor pulini chiqardi.

– To‘rt yuz so‘mgina ekan. Shu sizda omonat qolsin. Andijonda qolgan Oysha kelin buvingiz homilador bo‘yicha otasinikida edi. O‘g‘il ko‘rganini eshitdim. Uyam mening zurriyotim. Qizim Boqiyaxon bilan o‘sha farzandga “otangizning qoldirgani”, deb berib qo‘yarsiz. Zamonni ko‘ryapsiz, arzigulik boshqa meros qoldirolmayapman.

Mutavalli ketdi. Qori dada shom tushishini kutib, namozini o‘qidi-yu, atrof qorong‘ilashishi bilan qizini orqasiga opichib yo‘lga tushdi.



– Qayerga ketyapmiz, dada?

– Xolangiznikiga, qizim. Ularni yaxshi ko‘rasizmi?

– Yaxshi ko‘raman. Xolamning Turg‘untojixon, Savriniso degan qizlari, Muhammadjon degan o‘g‘li bor. Uchalasi meni opa deyishadi.

– Ana, yaxshi bo‘ldi. Ular bilan o‘ynab, katta bo‘lasiz. Buyoqda yolg‘iz zerikkandingiz, to‘g‘rimi?

– Katta yo‘ldan ketaylik. Makkajo‘xori barglari yuzimni shilib olyapti. Vuyy, mana, ko‘zimga kirdi.

– Qo‘lingiz bilan yuz-ko‘zingizni pana qilib oling. Katta yo‘ldan ketsak bo‘lmaydi, qizim.

– Nimaga bo‘lmaydi?

– Jim keting, Boqibillo!

– Siz-chi, xolamnikida qolsam, bir o‘zingiz qo‘rqmaysizmi? Meni qachon olib ketasiz?

– Qo‘rqmaslikka harakat qilaman-da, qizim. Mening bir joylarga boradigan ishlarim bor. Ishlarim bitishi bilan sizni yana olib ketaman, maylimi?

– Mayli, faqat ishlaringiz tezroq bitsin. Sizni sog‘inib yig‘layman bo‘lmasa. Sizni hammadan ko‘p yaxshi ko‘raman.

– Siz oqila Boqibillosiz-ku, oqilalar yig‘lamaydi.

Xolasining uyida qolgan Boqiyaxon endi batamom yetim qolganini bilmasdi. Dadasining ishlari tugashiga ishonib, kunlar o‘tdi. Keyinroq xolasining aytishicha, o‘sha tun o‘tib, ertasiga Rahmonberdi ota Abdurazzoqovni hibsga olish uchun kelgan bir nechta mirshab-u (?) rasmiylar otaning namoz o‘qiyotgan holatda sajdada jon taslim qilganini ko‘ribdi. Murda allaqachon sovib bo‘lgan ekan. Zolimlar niyatiga yetolmabdi.

***

1932-yil. Andijon. Muhammadali tunda yo‘lga chiqish rejasini uzil-kesil hal qilgan kuni akasining uyidan keldi-yu, katta o‘g‘li Ibrohimjon va ayoli Umrinisoga safar taraddudini ko‘rishni buyurdi. Umriniso uning ikkinchi ayoli bo‘lib, eridan ancha yosh, erining katta farzandi Ibrohimjondan bor-yo‘g‘i to‘rt yoshgina katta edi xolos.

– Avval ota uyingizga borib, ota-onangiz, jigarlaringiz bilan pinhon xayrlashib keling. Safarimiz elga oshkor bo‘lmagani ma’qul. Uyingizdagilarga ham tushuntiring buni.

– Men ham safarga birga ketamanmi?

– Shunisi ma’qul.

Ziyrak Umriniso erining bu qisqa javobi mag‘zini to‘g‘ri tushundi. Axir hali yangi kelinlik davri tugamagan bo‘lsa... Noumid bo‘lib, yolg‘iz qolmaydi-ku. Ustiga-ustak, erining o‘g‘li va jiyani bilan ketayotgani bu katta safarda ularning osh-ovqatini tayyorlab, kiyim-kechagini yuvishga ayol kishi kerak-ku.

– Qizim, islomda er amri vojib, degan naql bor. Mayli, boshing omon bo‘lsin! Bugungi notinch zamonni ko‘rib turibmiz. Ering kabi islom ilmi peshvolarini hukumat yomonotliq qilyapti ekan, – dedi qizini bag‘riga bosib onasi.

– Sizlarni sog‘inaman, onajon!

– Bu taqdir, asal qizim. Sog‘inishga kelsak, biz ham sog‘inamiz. Sabr qilamiz-da. Yana bir nasihatim shuki, farzand ko‘rsang, alla aytmay, katta qil!

– Nega, ona?

– Xo‘p deyaver. Keyin tushunasan.

***

Umrinisoning eriga safardosh bo‘lib ko‘rmagan ko‘rgiligi qolmadi. To‘ng‘ich qizi Obidaxon Afg‘onistonda yashab turganlarida tug‘ildi. Bolasi necha bor kasal bo‘ldi, tuzaldi. Onasining nasihatini esga olib, alla aytishdan o‘zini tiydi. Bir gal injiqlanib uxlolmay, tinimsiz yig‘layotgan bolasini ovutolmay qiynalganda alla boshlab yubordi. Hazin alla

ohangi elitib, bolasi orom topdi, ammo o‘zining yuragi to‘lib, musofirlikdagi ko‘p dardlari kuchayib ketaverdi.

Tug‘ilib-o‘sgan mahallasi, loy suvoqli bir uy bir dahliz uylari, mevali daraxtlari bor hovlisi, tanish teraklari, yon qo‘shnisinikidan ularnikiga oqib o‘tuvchi kichik ariq, onasining ariq bo‘yiga ekkan rayhon-u jambillari, tilladay sariq mevasi shokosaday bo‘lib, yesang, tanang yayraguvchi bir tup behi daraxti, otasining aytishicha: “Ostim ko‘l, ustim cho‘l bo‘lsin”, deydigan anjir daraxtlari ko‘ziga ko‘rinaverdi. Yuragi hapriqib, vujudini iztirobli sog‘inch egalladi. Chekkasiga rayhon taqib, durrasini dol boylagan onasi, birga to‘ptosh o‘ynagan tengdosh o‘rtoqlari xayoliga birin-ketin kelaverdi. Yuragi to‘liqib, sog‘inchlari ko‘zidan sitilib chiqib, yuzini yuva boshladi. Bolasi allaqachon ovungan bo‘lsa-da, uning tiliga dardchil alla qofiyalanib kelaverdi. O‘tday sog‘inchlari qarog‘ini kuydirib, dumalayverdi.

Ichidan kelgan “Ona, onajonim”, degan ovozsiz o‘kirik bilan onasini sog‘indi. Sho‘rlikkina onasi uzun ayriliq oldidan qiziga mehribonlik qilib, musofir yurtlarda qiynalmasin, deb bergan ekan bu o‘gitni. Demak, ona allasi oddiy xirgoyi yoki bola ovutish uchun shunchaki qo‘shiq emas, Vatan atalmish muqaddas xilqat tuprog‘ining inson tomirlariga ulangan sehri, tilsimi ekan.

Shukrki, Obidaxon og‘rib-tuzalib, katta bo‘ldi. Bu orada yana qancha yurt kezdilar. Safarda juda ko‘p mashaqqatlar chekdilar. Sarson-sargardonlikda bir burda nonga zor kunlari ko‘p bo‘ldi. Ayniqsa, Pokiston davlatiga kirib kelgan kunlar Rahmonberdi akasi “sizga omonat”, deb birga jo‘natgan jiyani – 16 yoshli Abdulaziz qattiq betob bo‘lib qoldi. Boshpana qidirib, tabib qidirib, kimlarga sarg‘ayishmadi, mo‘ltirashmadi. Yaxshiki, millati hind, ammo o‘ta taqvodor musulmon bir tabib topishdi. U tabib bemorga ham, uning safardoshlariga ham uyidan joy berib, mehribonlik ko‘rsatdi. Pokistonlik bu hind tabibning sa’y-harakati bilan Abdulaziz bir necha oy deganda kasallikdan forig‘ bo‘lib, batamom sog‘aydi.

– Sizlarning musulmon ekaningiz, ayniqsa islomiy ilmni chuqur egallagan ziyolilar bo‘lganingiz uchun izzat qilaman, – degan ekan o‘shanda u. – Men har gal Qur’on qiroatini tinglasam, tan vujudim tilsim ichra qolgandek bo‘ladi. Ikki yildan buyon uyimda yashayotganingiz meni juda baxtiyor qildi. Uyim nurga to‘lganday, jannat iforiga ko‘milganday bo‘ldi. “Hofizi Qur’on” bemorimga shifoni Olloh berdi. Men uning sog‘ayib ketishini Ollohdan tiladim va sababchi bo‘ldim xolos. Uning ota-onasiga havas qildim. Bu qadar ilm egasi bo‘lgani ota-onasining jannatiyligidan dalolat. Shu... nima desam ekan, ko‘nglimda yana bir istak paydo bo‘lgan-u, sizlarga aytolmay yuribman.

– Aytavering, uyingizda shuncha vaqt tuz nasiba totdik, har jihatdan xaloskorimiz bo‘ldingiz axir, – dedi Muhammadali. – Jiyanimni qabohat qatag‘onlaridan asrash uchun birga olib yuribman. Akamning omonati. Uni ajal olib ketsa, akamning oldida nima degan odam bo‘lardim?

– Shu... qarshi bo‘lmasangiz, Abdulazizni... kuyov qilgim bor. Oxiratda Xudoyim bizni ham “Hofizi Qur’on”ning ota-onasi qatorida siylarmidi...

Xullas, endigina balog‘at yoshiga yetgan Abdulazizning hind qizi Oyisha bilan kamtargina nikoh marosimi bo‘lib o‘tdi. Yana bir qancha vaqt o‘tib, Pokistonda ancha o‘zini tiklab olgan andijonlik safardoshlar azaliy orzulari bo‘lmish haj ziyoratiga yo‘l oldi. Rahmonberdi otaning “Safarda yuring, ammo Payg‘ambarimiz Muhammad Mustafo sallollohu alayhi vasallam yurtida qo‘nim topishga harakat qiling”, degan o‘gitlariga amal qilib, Madinani o‘zlarining ikkinchi Vatani deb yashab qoldilar.

***

1970-yil. Andijon.

– Darvoza taqillayapti, qarab qo‘y, o‘g‘lim!

– Xo‘p, – o‘n yoshli Baxtiyorjon darvoza tomon yurdi. Tezgina qaytdi.

– Bitta tog‘a ekan, dadamni so‘rayapti.

– Dadam shifoxonada demadingmi? Bor, Muhammadxon tog‘angni chaqirib chiqa qol, gaplashadi.

Yon darvozadan chiqqan Muhammadxon opasining darvozasi yonida turgan notanish odam bilan ko‘rishib, ancha gaplashdi. Uyga taklif qildi, ko‘nmagach, tavoze bilan kuzatdi-da, to‘g‘ri opasinikiga kirib bordi.

– Opa, assalomu alaykum!

– Vaalaykum assalom, keling, uka. Kelgan odam kim ekan?

– Juda noyob mehmon ekan. Siz-u men kutmagan juda aziz mehmon ekan. Ikkimizni uzoq qidirib, nihoyat, topib kelgan mehmon ekan, opa.

– So‘z o‘yiniga usta ukamsiz-da. Ayta qoling, shuncha qidiruvdan so‘ng topib kelgan bo‘lsa, nega uyga taklif qilmadingiz?

– Akamning uzoq Qrim viloyatidagi shifoxonada ekanini eshitib, erkaksiz uyga kirishdan andisha qildi chamamda. “Men ukasi bo‘laman”, deganimdan keyin onamning ismini so‘radi-yu: “Sizga aytsam ham bo‘laveradi”, deb tashrif maqsadini ayta qoldi. Bilsangiz, u odam rahmatli otasining bir vasiyatini ado etish uchun kelibdi.

Boqiyaxon ayaning yuragi hapriqib ketdi.

– Otasi kim ekan?

– Siz-u mening padari buzrukvorimiz – Rahmonberdi qori dada Andijonda yashab, imom bo‘lgan masjidning mutavallisi bo‘lgan ekan. Dadangiz qoldirgan omonat deb 40 so‘m pul berib ketdi. Mana.


– To‘g‘ri eshitdimmi? Dadamiz bizga omonat pul qoldirgan ekanmi?

– Yo Xudoyim, nega uyga chorlamadingiz? Dadamiz haqida gapirib berardi. Qattiqroq taklif qilmabsiz-da, uka. Chakki qilibsiz! – aya hamon hayajonda, o‘ng qo‘li bilan hapriqib turgan yuragini bosib gapirdi.

– Uyga kiring, desam, ko‘nmadi, opa, ko‘nmadi. Keyin-chi, dadamizni u emas, otasi ko‘rgan. Hamma gapni menga tushuntirib ketdi. Xotirjam o‘tirib oling, aytib beraman.

***

Mehmon mamlakatda qatag‘on musibatlari yoyilgan yillarda Andijonning Eski shahar hududidagi bir masjidda Rahmonberdi qori bilan birga ishlagan odamning o‘g‘li ekan. “Eski ilm imomi”, deya hibsga olinadiganlar ro‘yxatiga tushgan Rahmonberdining ko‘zdan nari deb uzoq Rayish qishlog‘iga ko‘chib ketishiga ko‘maklashganlardan biri shu mutavalli bo‘lgan ekan. O‘sha davrning NKVDsi uni ham tergovga chaqirib, imomning



qayerga yashiringanini so‘rab-surishtirgandan keyin Mirzaqosim bilan maslahatni bir joyga qo‘yib, qori dadani ogohlantirish uchun tunda cho‘zilgan adirlar oralab Rayishga borgan ekan.

Bu do‘stligi beg‘araz shogirddan minnatdor ustoz unga yaktagi cho‘ntagidagi oxirgi puli – 400 so‘mni omonat qoldirib, imkon topilganda ikki zurriyoti – Boqiyaxon va uning ukasiga "otangizning omonat merosi", deb berib qo‘yishini so‘ragan ekan.

1961-yilda pul yangilanib, omonat ushbu 400 so‘m 40 so‘mga aylanibdi hamki, omonatni topshirolmay, opa-ukani ko‘p qidiribdi. Va o‘limi oldidan yuragidagi o‘ttiz besh yillik bu voqeani o‘g‘liga so‘zlab, qanday bo‘lmasin, omonatning egalarini topib, topshirishni tayinlabdi.

– Voy, dadajonim-ey, – Boqiyaxon aya ro‘molining uchini ko‘ziga bosib, yoshini artib oldi.

Ukasi uzatgan to‘rtta qizil rangli o‘n so‘mlik pulni avval ko‘zlariga surib, so‘ng labiga bosib o‘pdi. Yuragi battar hapriqib, boshi aylanganday bo‘ldi. Ko‘ksini kuchli sog‘inch chirmadi. Dadasi bilan oxirgi marta tekis yo‘ldan emas, yashirincha qalin makkapoyalar oralab xolasining uyi tomon borganlarini esladi. Dadajonisi... Ayolidan, jigarlaridan, o‘g‘lidan, qizidan o‘z ixtiyori ila ovozsiz vidolashishga qanday kuch topoldi ekan? Ichi to‘la sir-sinoat bo‘lib ketgan dadajonisi... Har qanday holatda ham o‘zini emas, yaqinlarini asrash rejasi bilan yashagan, birovga tish yorib, hasrat qilib bo‘lmas kunlar azobiga qandoq chidagan ekan? O‘sha – tiriklikning so‘nggi tunida ko‘nglidan nelar kechdi ekan? Ehtimol, tun bo‘yi ibodat qilib, Ollohdan huzuriga chaqirib olishini so‘raganmikin? Axir zulmkorlar panohidan asrash uchun unga tong namozida jon taslim qilish nasib etishi Haq bilan o‘ta yaqinlikning belgisi, mo‘jizasi emasmikin?

***

Boqiyaxon aya to‘rtta o‘n so‘mlikning ikkitasini ukasiga qaytardi.

– Oling, uka, bu sizning dadamizdan qolgan meros pulingiz, tabarruk, – dedi.

Muhammadxon opasidan pulni olarkan, uning ham yuragi hapriqdi. O‘zi ko‘rolmagan dadasini sog‘inganini, qo‘lida tutib turgani yigirma so‘m bilan dunyodagi eng boy odamga aylanganini his qildi.

– Aytganingizday, bu pullar tabarruk, Xudo xohlasa, u ikkalamizning ro‘zg‘orimizga baraka beradi. Bu pulni uyimizda asrab saqlaymiz, opa.

– Mening boshqa rejam bor, uka. Dadamiz rahmatli ehson qilishni, nochor odamlarga yordam berishni yaxshi ko‘rardi. Siz-u men shu pulni xamirturush qilsag-u, kamini o‘zimizdan to‘ldirib, bir qo‘y sotib olsak. So‘ng dadamiz umrining so‘nggi kunlarini o‘tkazgan Rayish qishlog‘iga borsak-da, o‘sha yerda dadamizni ko‘rgan odamlarning bolalari, balki, nabiralari bo‘lsa ham topib, gaplashsak. Dadamiz haqida ular ham bilganlarini so‘zlab bersa, tinglasak, yaxshi bo‘lar, deyman. O‘sha manzilda qo‘y so‘yib, dasturxon yozib, mahalla odamlarini ehson – xudoyiga chaqirsak, nima deysiz, uka?

– Ma’qul, opajon! Rejangiz juda zo‘r. Baribir oqila opamsiz.

Shunday qildilar. Andijonlik islom ilmi namoyandalaridan biri Rahmonberdi qorining qochqin-u quvg‘inlar bilan kechgan umri haqida, mamlakatdagi mustabidlikning azobli ko‘rinishlari haqida, el-ulusning mehnati, sabr-u bardoshi haqida xotiralar so‘zlandi. Mustaqillikning, o‘z-o‘ziga beklikning qadr-qimmati naqadar ulug‘ligi ta’riflandi. O‘tganlar xotirasiga tilovat qilindi.

(Davomi bor)

Zamira RO‘ZIYEVA,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

Xalqaro hamkorlik



Tashkilotlar rahbarlari Belarusda

Belarus Respublikasida Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi Armiya, aviatsiya va flotga ko‘maklashuvchi ko‘ngillilar jamiyati *(DOSAAF)* xalqaro ittifoqi markaziy kengashining XIII plenumi bo‘lib o‘tdi.





Minsk shahri mezbonlik qilgan ushbu tadbirda Rossiya, Belarus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va O‘zbekistonning mudofaaga ko‘maklashuvchi tashkilotlari rahbarlari ishtirok etdi.

Plenum ishtirokchilari o‘zlari rahbarlik qilayotgan tashkilotlarning yoshlarni mudofaaga tayyorlash, ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish hamda turli kasb mutaxassislarini tayyorlash bo‘yicha tajribalari bilan o‘rtoqlashdi.

Ayniqsa, Belarus Respublikasi Armiya, aviatsiya va flotga ko‘maklashuvchi ko‘ngillilar jamiyatining uchuvchisiz uchish apparatlari operatorlari, uchuvchilar va parashyutchilar tayyorlash bo‘yicha tajribasi ittifoqdoshlar orasida yuqori baholandi.

Shuningdek, plenum davomida O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov tashkilot tomonidan yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular orasida sportning texnik va amaliy turlarini ommalashtirish hamda mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasb mutaxassislarini tayyorlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar xususida ma’lumotlar berdi. Nutqi so‘ngida MDH DOSAAF xalqaro ittifoqi faoliyatida hamkorlik aloqalarini yanada kuchaytirish bo‘yicha bir qator takliflarini ilgari surdi.

Plenumdan keyingi kunlarda mehmonlar Belarus Respublikasi Armiya, aviatsiya va flotga ko‘maklashuvchi ko‘ngillilar jamiyatining uchuvchilar va avtomotosportchilar tayyorlovchi tashkilotlari faoliyati bilan tanishdi.

Shuningdek, Minsk shahridagi Ikkinchi jahon urushi davlat muzeyi va tarixiy-madaniy majmuaga uyushtirilgan ekskursiya barchada unutilmas taassurotlar qoldirdi.

Jarayon

Amaliy tadbirlar davom etmoqda

Toshkent harbiy prokuraturasi tomonidan Jamoat xavfsizligi universiteti hududida amalga oshirilayotgan qurilish-ta’mirlash ishlari o‘rganildi.

Jarayonda mas’ullarga tegishli ko‘rsatmalar berildi. So‘ng Yashnobod tumani favqulodda vaziyatlar bo‘limida ochiq muloqot tashkil etildi. Unda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun mohiyati, ushbu illat bilan bog‘liq jinoyatlar va ular uchun belgilangan javobgarlik masalalari haqida so‘z yuritildi.

Shu kabi tadbir Milliy gvardiyaga qarashli harbiy qismlarning birida ham o‘tkazildi. Yakunda shaxsiy qabul tashkil etilib, harbiy xizmatchilarni qiziqtirgan masalalar yuzasidan huquqiy tushuntirishlar berildi.

Bundan tashqari, Milliy gvardiya qo‘mondonligi, davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda Milliy gvardiyaning “Temurbeklar maktabi” va Harbiy musiqa akademik litseylari o‘quvchilarining va’da berish tantanali marosimi tashkil etildi.

So‘z olganlar o‘quvchilarni bugungi unutilmas sana bilan qutladi va kelgusi o‘qishlarida muvaffaqiyatlar tilab, ezgu tilaklarini bildirdi.

Adliya podpolkovnigi Alisher QURBONOV,
Toshkent harbiy prokurorining yordamchisi

Uchrashuv

Yaponiya delegatsiyasi Chilonzorda



Yaponiyaning ish beruvchi kompaniyalari vakillaridan iborat delegatsiya O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti Toshkent shahri kengashi tasarrufidagi Chilonzor tumani o‘quv sport-texnika klubiga tashrif buyurdi.



Uchrashuv mobaynida Tarutoku umumiy tadqiqotlar markazi rahbari Tarutoku Shinji boshchiligidagi delegatsiya a’zolari “Vatanparvar” tashkiloti tizimida texnik kasb mutaxassislari, jumladan turli toifalarda avtomototransport haydovchilarini tayyorlash jarayoni, mavjud moddiy-texnik baza, o‘quv dasturlari va haydovchilik kasbini puxta o‘rgatishga qaratilgan innovatsion texnologiyalarni ko‘zdan kechirdi.

Tadbir davomida hozirda Yaponiyada asosan “D” va “CE” toifalari bo‘yicha 200 mingdan ortiq haydovchiga ehtiyoj sezilayotgani, agar ikki tomonlama kelishuvga erishilsa, o‘zbekistonlik talabgor fuqarolar “Vatanparvar” tashkiloti o‘quv muassasalarida ushbu toifalar bo‘yicha o‘qitilib, yapon diyoriga vaqtincha ishlash uchun yuborilish masalalari muhokama qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti matbuot xizmati

Texnologiya

INTERNET XAVFSIZLIGI VA RAQAMLI SAVODXONLIK

Raqamli texnologiyalar va internetning turli sohalarga tobora faol joriy etilishi bilan onlayn makonda xavfsizlikni o‘rgatish va raqamli savodxonlikni rivojlantirish zarurati yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Ushbu maqolada biz kompetensiyalarning zamonaviy ta‘limdagi ahamiyati, ularning o‘quvchilar va ta’lim muassasalariga ta’sirini ko‘rib chiqamiz.



Raqamli tahdidlar murakkab va xilma-xil bo‘lib borayotgan bugungi dunyoda internet xavfsizligi bo‘yicha treninglar ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. O‘quvchilar o‘zining shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilishi, fishing hujumlarni farqlay olishi, kiberbullingning oldini olishi va xavfsiz onlayn xatti-harakatlarning asosiy tamoyillarini tushunishi kerak. Ushbu ko‘nikmalarni o‘rgatish ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari uchun xavfsiz va sog‘lom onlayn muhitni yaratishga yordam beradi.

Raqamli savodxonlik nafaqat kompyuter va dasturiy ta’minotdan foydalanish qobiliyatini, balki tanqidiy fikrlashni, turli manbalardan olingan ma’lumotlarni tahlil qilish va raqamli muloqot qilish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Internetdagi ma’lumotlarning ishonchliligini baholash, muammolarni hal qilish uchun raqamli vositalardan foydalanish hamda onlayn muhitda samarali ishlash qobiliyati o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Internet xavfsizligi bo‘yicha ta’lim va raqamli savodxonlikni rivojlantirish barcha darajadagi ta’lim jarayoniga integratsiya qilinishi kerak. Maktab va universitetlar nazariy asoslarni hamda amaliy ko‘nikmalarni o‘z ichiga olgan maxsus o‘quv dasturlarini ishlab chiqishi lozim. O‘qituvchilar ushbu kompetensiyalarni o‘rgatish va o‘z ishlarida zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanishga tayyor bo‘lishi kerak. Ko‘pgina ta’lim muassasalari raqamli ta’lim platformalarini o‘z ta’lim jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiya qilmoqda.

Masalan, Google kabi platformalar Classroom, Moodle va Canva o‘qituvchilarga onlayn kurslar yaratish, o‘qishlar, topshiriqlar va testlarni joylashtirish hamda o‘quvchilarga fikr-mulohazalarini taqdim etishning oson yo‘lini taqdim etadi. Coursera, edX va Udemy kabi platformalar dunyoning eng yaxshi universitet va muassasalari kurslariga kirish imkonini beradi. Ko‘pgina ta’lim muassasalari MOOC'ni o‘z o‘quv dasturlariga integratsiya qilmoqda, bu esa o‘quvchilarga oddiy o‘quv dasturidan tashqari o‘z bilim va ko‘nikmalarini kengaytirish imkonini beradi. So‘nggi o‘n yilliklarda ta’lim muassasalari ma’lumotlarni saqlash, loyihalarda hamkorlik qilish va ta’lim resurslariga kirish uchun bulutli texnologiyalardan tobora ko‘proq foydalanmoqda. Masalan, Google Workspace va Microsoft Office 365 o‘quvchi va o‘qituvchiga hujjatlarni almashish, taqdimotlar yaratish va onlayn muloqot qilish imkoniyatini beradi.

Onlayn xavfsizlik bo‘yicha ko‘nikmalarga ega bo‘lish va raqamli savodxonlikni rivojlantirish o‘quvchilarga ham, ta’lim muassasalariga ham bir qator afzalliklarni beradi. O‘quvchilar mustaqil, ishonchli va zamonaviy raqamli dunyoga tayyor bo‘ladi. Ta’lim muassasalari, o‘z navbatida, xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhitini yaratadi, bu esa o‘quvchilarning muvaffaqiyatiga yordam beradi hamda ta’lim muassasasi obro‘sini oshiradi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, internet xavfsizligi va raqamli savodxonlik zamonaviy ta’limning ajralmas kompetensiyalari hisoblanadi. Ushbu ko‘nikmalarni o‘rgatish nafaqat o‘quvchilarning raqamli dunyoda muvaffaqiyatli ishlashiga yordam beradi, balki xavfsiz hamda qo‘llab-quvvatlovchi o‘quv muhitini yaratishga yordam beradi. Kelgusi avlodning muvaffaqiyatli kelajagini ta’minlash uchun ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish ta’lim muassasalari va butun jamiyat uchun ustuvor vazifa bo‘lishi kerak.

Podpolkovnik Dilshod ALANGOV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
katta o‘qituvchisi

E’tirof

SIZGA TA’ZIMDAMIZ, AZIZ USTOZLAR!

Ustoz nafaqat bilim beruvchi, balki hayotimiz davomida bizga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi chinakam yo‘lboshchidir. Ularning saboqlari, hayotiy tajribalari va jonkuyarligining qiymatini hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydi.



Har bir inson uchun ustozlarning bergan ilmi, ta’lim-tarbiyasi muayyan mezonlar asosida yashashining asosi bo‘lib qoladi. Shu bois Lev Tolstoy: “Har bir ustoz – o‘ziga xos buyuklikka ega bo‘lgan yo‘l ko‘rsatuvchi”, deya juda to‘g‘ri ta’kidlagan edi.

Darhaqiqat, ustozlar murg‘akligimizdanoq qalbimizga ezgulik urug‘larini sochadi, qo‘limizdan tutib, ma’rifat saboqlarini beradi, mehr-muhabbat ulashadi. Biz erishayotgan ulkan yutuqlarimiz, qo‘lga kiritayotgan g‘alabalarimizda ularning hissasi nihoyatda katta. Shu sabab ularni mudom sharaflagimiz, ardoqlagimiz keladi.

Afsonalarga ko‘ra, mashhur sarkarda Iskandar Rumiydan *(Aleksandr Makedonskiy)*: “Nechun Arastuni *(Aristotel)* otangizdan ortiq izzat qilasiz?” deb so‘radilar. Iskandar Rumiy javob berdi: “Otam go‘yoki meni osmondan yerga tushirdi. Ammo ustozim Arastu meni yerdan osmonga ko‘tardi. Ya’ni otam mening dunyoga kelmog‘imga, ustozim esa ilm va odob o‘rgatib, martaba va izzatimning ortmog‘iga sabab bo‘ldi”.

Xalqimizda “Ustoz otangdek ulug‘”, degan hikmat bejiz aytilmaydi. O‘tgan ulug‘larimiz, ota-bobolarimiz ustoz va muallimlarning haqqini yaxshi bilgan, ularning qadri nechog‘li baland ekanini teran anglagan va shunga ko‘ra muomala qilgan. Imomi A’zam Abu Hanifa rahmatullohi alayh shunday deganlari rivoyat qilinadi: “Ustozim Hammodning hurmati uchun uning uyi tomonga oyog‘imni uzatmaganman. Holbuki, uning uyi bilan mening uyim orasida yettita ko‘cha bor edi. Hammod vafot etgandan so‘ng qachon namoz o‘qisam, har safar, albatta, ota-onamga qo‘shib unga ham Allohdan mag‘firat so‘raganman. Nafaqat u ustozim, balki kimdan nimadir o‘rgangan bo‘lsam yoki kimdir menga nimadir o‘rgatgan bo‘lsa, albatta, o‘sha kishilar uchun ham doim Allohdan mag‘firat so‘rayman”.

Demak, inson hayoti davomida hamisha hurmat va izzat bilan muomala qiladigan, har zarra mehnati uchun bir umr sharaflarga loyiq zot muallim ekanini zinhor unutmasligi kerak.

Respublikamizda 1997-yildan buyon 1-oktabr sanasi O‘qituvchi va murabbiylar kuni sifatida keng nishonlanadi. Jamiyatimizda o‘qituvchi-pedadoglarga yaratilayotgan imkoniyat va sharoitlar tahsinga loyiq ekanini e’tirof etmog‘imiz lozim.

Ta’bir joiz bo‘lsa, har bir davlatning, jamiyatning maqomi yosh avlodni ma’nan yetuk, aqlan barkamol qilib shakllantirishdek ulkan vazifasini sidqidildan zimmasiga olgan ustozlarga bo‘lgan munosabat bilan o‘lchanadi. Demak, o‘qituvchi-murabbiylar tom ma’nodagi kelajak bunyodkorlaridir.

Sabohat ISAKJANOVA,
Jaloliddin Manguberdi nomidagi
harbiy akademik litseyi o‘qituvchisi

Qadriyat

Yurtboshimiz ta’kidlab o‘tganlaridek, qiz bolaning ziyoli, dunyoqarashi keng, axloqli, oilaparvar, vatanparvar bo‘lishi farzand tarbiyasida katta ahamiyatga ega. Tarixga yuzlansak, ayollarimiz nafaqat yurt himoyasiga qodir sheryurak o‘g‘lonlar tarbiyalagan, balki To‘maris, Qurbonjon dodho kabi elparvar momolarimiz ayol qudrati, aql-zakovati nelarga qodirligini namoyish etgan. Bu barcha davr va zamonlarda o‘z isbotini topib kelgan haqiqatdir.



Bellashuvlar vatanparvarlikka xizmat qiladi

Shu sabab davlatimiz rahbarining tegishli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya, DXX Chegara va IIV Qorovul qo‘shinlarida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchi ayollar bilan hamkorlikda olis hududlardagi maktablarda ilm olayotgan o‘quvchi-qizlar o‘rtasida “Men vatanparvarman” shiori ostida ma’naviy-ma’rifiy va vatanparvarlik ruhidagi bellashuvlar amalga oshirilmoqda.

Harbiy xizmatchi ayollar bilan hamkorlikda deyishimizga sabab Qurolli Kuchlar tizimida xizmat qilayotgan ayollar yurtimizning chekka joylaridagi maktablarda bo‘lib, ko‘ksida Vatanga xizmat qilish, oliygohlarda tahsil olib, el koriga yelka tutadigan ziyoli insonlar bo‘lishni maqsad qilgan yuqori sinf o‘quvchi-qizlari bilan mashg‘ulotlar o‘tkazgan. Ularning bilim va iqtidorlarini yuzaga chiqarishni bellashuvlarga tayyorlash orqali harakat qilganlar. Qilinayotgan sa’y-harakatlar tadbirlarda o‘z natijasini bermoqda.











Vatanparvarlik – ulug‘ qadriyat

Vatanparvarlik ruhidagi mana shunday tadbirlar O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi, Qurolli Kuchlar vazirlik va idoralari hamda davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligida Samarqand viloyatidagi olis hudud maktablarida bo‘lib o‘tdi. “Men vatanparvarman” shiori ostida o‘tkazib kelinayotgan tadbirlarning yuksak saviyada amalga oshirilishida Samarqand harbiy prokurori adliya polkovnigi Otabek Haydarov boshchiligidagi prokuratura xodimlari katta jonbozlik ko‘rsatdi.

O‘quvchi-qizlar o‘rtasida o‘tkazilgan bellashuv dastlab Samarqand viloyatining Qo‘shrabot tumanidagi Xudoyberdi Jovbo‘riyev rahbarlik qilayotgan 68-umumta’lim maktabida bo‘lib o‘tdi. Tadbir avvalida so‘z olgan O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining katta yordamchisi adliya podpolkovnigi Gulchehra Tursunova Yurtboshimiz qaroriga urg‘u bergan holda, nafaqat yigitlarimizni, balki qizlarimizning ham bilimli va zakovatli bo‘lishlari mamlakatimiz taraqqiyoti uchun xizmat qilishiga zamin yaratishi va kelajak avlod uchun muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlab o‘tdi.

Bellashuvda “Harbiy qizlar”, Chegarachi qizlar” hamda “O‘zbegim qizlari”dan iborat uch guruhdagi o‘quvchi-qizlar beshta yo‘nalishda o‘zaro kuch sinashdi. Tanishtiruv, vatanparvarlik ruhidagi she’rlarni ifodali o‘qish, tasviriy san’at, savol-javob hamda sahna ko‘rinishidan iborat shartlar ishtirokchilardagi bilim va iqtidorni yuzaga chiqarishga xizmat qildi. O‘quvchilarning har bir shartga o‘ziga xos yondashgani, ayniqsa harbiy-vatanparvarlikka alohida e’tibor qaratgani tahsinga sazovordir. Ularning iqtidori hay’at a’zolari tomonidan odilona baholab borildi.

Tog‘ “ohulari”

Maktablardagi tadbir bilan bog‘liq rejamizning ikkinchi kuni Poyariq tumanidagi 39-umumta’lim maktabiga yo‘l oldik. Yengil mashinada dashtliklar, adirliklar, tog‘lar oralab oldinga intilar ekanmiz, “mana buni olis hudud desa bo‘ladi”, deya dilimdan o‘tkazaman. Uzoq yo‘l yurib maktabga yaqinlashdik chog‘i, yo‘l bo‘yida, adirliklarda maktabga yo‘l olayotgan o‘quvchilar ko‘zga tashlandi. Baland-pastliklarda chopqillab ketayotgan o‘quvchi-qizlarni ko‘rib, “Qaranglar, tog‘ ohulari-ku bular”, dedim ularning chaqqon harakatiga havas va hayrat bilan qarab. Hamrohlarim “to‘g‘ri aytasiz”, deya kulib fikrimni tasdiqladi.

Maktabning ixchamgina hovlisida bo‘lib o‘tgan tadbir katta taassurotlarga boy bo‘ldi. Negaki, o‘quvchi-qizlar bellashuvga astoydil tayyorgarlik ko‘rgan. Safda yurishlari, harakatlari harbiy xizmatchilarnikidan qolishmaydi. Tanishtiruv shartida ona tilimiz bilan birga xorij tillarida ham biyron-biyron so‘zlashlariga havas qilsa arziydi. Bilimda ham shaharlik tengdoshlaridan yuqori bo‘lsa borki, aslo kam emas.

Balki, shu sabab maktab direktori Baxtiyor Muhammadiyev ta’kidlab o‘tganidek, oliy ta’lim dargohlariga hujjat topshirgan o‘quvchilarning 70-80 foiziga talaba bo‘lish nasib etar ekan.

O‘quvchi-qizlar sahnaga olib chiqqan Ikkinchi jahon urushi bilan bog‘liq voqealar, farzandini frontga kuzatgan va undan ayrilgan onaning holati tomoshabinlarga ta’sir etmay qolmadi, ko‘zlarni namlantirdi.

Biz ularni bellashuvga tayyorlagan ustozlari – harbiy xizmatchilar bilan qiziqdik. Milliy gvardiya qo‘shinlarida xizmat qilayotgan serjantlar – Sayohat Mo‘minova, Nazima Saidova hamda safdor Farida Mamatovaga minnatdorlik bildirsa arziydi. Ularning ilkidagi vazifaga fidoyilik ila yondashgani, har bir shartga harbiy-vatanparvarlik ruhini singdirgani, ustozlarga xos kuyunchakligi o‘quvchilarning shartlarni mehr bilan ado etishida bo‘y ko‘rsatib turdi.

Milliylikka e’tibor

Uchinchi kungi tadbirimiz Nurobod tumanidagi 10-umumta’lim maktabining yuqori sinf o‘quvchi-qizlari bilan bo‘lib o‘tdi. “To‘maris”, “Yosh vatanparvarlar” hamda “O‘zbekning mard qizlari” guruhlari belgilangan shartlar bo‘yicha o‘zaro kuch sinashdi. Bellashuv davomida mahorat, iqtidor, bilim va zakovat borasida bir-birlaridan kam emasliklarini isbotladilar.

Maktab o‘quvchilarining sahnadagi chiqishlaridan shuni angladikki, qizlar ko‘proq milliy libos, milliy qo‘shiq va raqslarga e’tibor qaratgan. Bu ham vatanparvarlik tuyg‘usining o‘ziga xos ko‘rinishi, albatta. Bu borada o‘quvchilarni bellashuvga tayyorlashda maktab direktori Dilnoza Abulqosimova hamda muallimlari tayanch bo‘lganidan voqif bo‘ldik.

Bir so‘z bilan aytganda, qizlarimizdagi bilimga chanqoqlik, maqsadi tomon dadil intilish, oliy ta’lim dargohlarida o‘qish, harbiy sohada xizmat qilish istagi bizni quvontirdi. Ularning nigohidagi o‘ziga bo‘lgan ishonch istiqboli nurli bo‘lishiga zamin yaratadi, shubhasiz. Faqat ota-ona va yaqinlari, ustozlari ularga ruhan tayanch bo‘lishi, qo‘llab-quvvatlashi katta ahamiyat kasb etadi.

Bellashuvlarda ishtirok etgan o‘quvchi-qizlarning barchasiga, shuningdek ustozlariga harbiy orkestr sadolari ostida Samarqand harbiy prokuraturasi hamda harbiy qism va jamoat tashkilotlari tomonidan qimmatbaho sovg‘alar, faxriy yorliq va diplomlar topshirildi.

Zulfiya YUNUSOVA,
“Vatanparvar”

Saxovat karvoni

Navbatdagi xayriya

Xalqimizda azal-azaldan keksalar, qo‘shnilar, muhtoj oila va nogironlar, bemorlar holidan xabar olish kabi insoniylikning yuksak fazilatlari saqlanib kelmoqda. Ana shunday oliyjanob an’analarni davom ettirish maqsadida Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug qo‘shinlari qo‘mondonligi olis hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi sust bo‘lgan qishloq va ovul ahliga amaliy yordam ko‘rsatish, ular holidan xabar olish, moddiy va ma’naviy ko‘mak berish kabi navbatdagi xayriya tadbirlarini Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xo‘jayli tumanidagi “Qo‘mjiqqin” hamda Shumanay tumanidagi “Mamiy” ovul fuqarolar yig‘inida o‘tkazdi.















Bugun barcha soha vakillari kabi Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilari ham yurtdoshlarimiz salomatligini mustahkamlash, tuman markazlaridan uzoq masofada istiqomat qilayotgan aholiga amaliy ko‘mak berish uchun qo‘yilgan vazifalarni hamjihatlikda bajarib kelmoqda.

Aholi salomatligini yaxshilash, ular sog‘lig‘idan xabar olish hamda tibbiy muolajalar ko‘rsatish maqsadida Nukus harbiy gospitali tibbiyot brigadasi tomonidan Xo‘jayli va Shumanay tumanlarida jami 350 nafarga yaqin yurtdoshimizga nevropatolog, jarroh, terapevt, travmatolog, kardiolog kabi shifokorlar tibbiy xizmat ko‘rsatdi. Laboratoriya, ultratovush tekshiruvlari o‘tkazilib, tegishli xulosalar hamda tuman va respublika tibbiy birlashmalariga yo‘llanmalar berildi. Ovullarga yetib borgan Harbiy-tibbiy mobil markazi imkoniyatlaridan unumli foydalanilib, ota-onalar iltimosiga binoan, 5 nafar o‘g‘il bola sirkumsiziya jarrohlik amaliyoti, ya’ni sunnat qilindi. Shuningdek, boshqa kichik jarrohlik operatsiyalari ham o‘tkazildi. Yuqori aniqlikdagi laboratoriya tekshiruvlari natijasida bir qancha fuqarolarda oyoqlar qon tomirlarida trombozlarni erta aniqlanib, tibbiyot birlashmalariga keyingi jarrohlik amaliyotlarini o‘tkazish uchun tavsiyalar berildi.

Kasbiga sadoqatli harbiy shifokorlar uyda bemor bo‘lib yotgan, nogironligi bor vatandoshlarimiz holidan ham xabar olib, ularga kerakli tibbiy xizmatlar ko‘rsatdi.

Xayriya aksiyasi doirasida Nukus garnizoni ma’naviyat va ma’rifat markazi harbiy orkestri hamda Xo‘jayli va Shumanay tumanlari madaniyat bo‘limlari san’atkorlari ishtirokida bayramona konsert dasturi namoyish etilib, yurtdoshlarimizga olam-olam quvonch ulashildi. Vatanni madh etgan kuy-qo‘shiqlar, harbiy navolar bolalarda vatanparvarlik ruhini, shijoatini oshirgan bo‘lsa, sho‘x-shodon estrada qo‘shiqlari ularni raqsga chorladi.

Muddatli harbiy xizmatchilar tomonidan namoyish etilgan qo‘ljangi va ko‘rgazmali chiqishlar barchaga manzur bo‘ldi.

Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug matbuot xizmati

Sayyor qabul

BARCHASI nazorat ostida

Nukus harbiy prokuraturasi hamda garnizondagi harbiy qism qo‘mondonligi tomonidan ma’naviyat va ma’rifat markazida harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari hamda Qurolli Kuchlar xizmatchilar ishtirokida ommaviy sayyor qabul o‘tkazildi.



Unda Nukus harbiy prokurori adliya polkovnigi Ulug‘bek Abdiraximov, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik, Maktabgacha va maktab ta’limi, Sog‘liqni saqlash vazirliklari va Markaziy bank hamda boshqa davlat tashkilotlari mutaxassislari ishtirok etdi.

Tadbirda ta’kidlanganidek, davlat idoralari xalq manfaatlari uchun xizmat qilib, aholini qiynab kelayotgan muammo va tashvishlariga alohida e’tibor qaratishi mamlakatimiz siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Harbiy xizmatchilar va ular oila a’zolarining ijtimoiy himoyasi ham doim davlatimiz e’tiborida bo‘lib, ularga xavfsiz va qulay xizmat hamda maishiy sharoitlar yaratish, belgilangan ta’minot turlari bilan o‘z vaqtida ta’minlash kabi vazifalar doim nazoratda ekani tushuntirib o‘tildi.

Sayyor qabulda jami 14 nafar harbiy xizmatchi va ularning oila a’zolari tomonidan berilgan murojaatlarning 3 tasi shu joyning o‘zida ijobiy hal qilinib, 5 ta murojaatga tegishli soha mutaxassislari tomonidan tushuntirish berildi. Yechimi uchun qo‘shimcha muddat talab etiladigan 6 ta murojaat nazoratga olinib, qisqa vaqt ichida hal qilish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug matbuot xizmati

MUROJAATLAR ijrosi ta’minlandi



Havo hujumidan mudofaa qo‘shinlari va Harbiy havo kuchlari qo‘mondonligiga qarashli harbiy qismlarning birida Chirchiq harbiy prokuraturasi tomonidan harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari uchun sayyor qabul tashkil etildi.

Mazkur jarayonda 10 nafar harbiy xizmatchi va 5 nafar harbiy xizmatchining oila a’zolari tomonidan murojaat kelib tushib, ushbu murojaatlarning 8 tasi o‘z joyida hal qilindi. 7 ta murojaat bo‘yicha tegishli mutasaddilarga vazifalar berildi hamda ularning ijrosi nazorat ostiga olindi.

Shu bilan bir qatorda harbiy xizmatchilarning oila a’zolari bandligini ta’minlash maqsadida Qibray tumani kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi bilan hamkorlikda mehnat yarmarkasi o‘tkazilib, 5 nafar harbiy xizmatchining oilasiga ishga joylashish uchun yo‘llanmalar berildi.

Harbiy xizmatchilar oila a’zolarining sog‘lig‘ini saqlash va ularning mazkur yo‘nalishdagi muammolarini o‘rganish maqsadida Qibray tumani tibbiyot birlashmasi bilan hamkorlikda tibbiy ko‘rik ham o‘tkazildi.

Tadbir davomida Qibray tumani o‘quvchi-yoshlari hamda uyushmagan yoshlar uchun “Vatanparvarlik festivali” bo‘lib o‘tdi. Mazkur tadbirda harbiy xizmatchilar tomonidan tayyorlangan qo‘ljangi chiqishlari, qurol-aslaha va texnikalar namoyishi, psixologik, sport o‘yinlari tashkil etildi.

Sherzod EGAMBERDIYEV, “Vatanparvar”



MVSM VAKILI JAHON REYTINGIDA YAQQOL YETAKCHI

Butunjahon taekvondo federatsiyasi (WT) "Parij – 2024" yozgi Olimpiya o'yinlaridan keyingi reytingini e'lon qildi. Ikki karra Olimpiada chempionligiga erishgan Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakili Ulug'bek Rashitov reytingda katta farq bilan yetakchilik qilmoqda.

2023-yil oxirida Butunjahon taekvondo federatsiyasi (WT) "Parij – 2024" yozgi Olimpiya o'yinlari uchun litsenzion reyting ochkolarini jamg'arish davri yakunlangani va u orqali yo'llanmani qo'lga kiritgan sportchilar nomini e'lon qilgandi. Unga ko'ra, O'zbekiston terma jamoasining ikki nafar a'zosi, ya'ni MVSM vakillari Ulug'bek Rashitov *(-68 kg)* va Svetlana Osipova *(+73 kg)* "Parij – 2024" yozgi Olimpiya o'yinlariga yo'llanma olgandi. Ta'kidlash joiz, bu yurtimiz taekvondosi uchun o'ziga xos tarixiy voqelik bo'lgandi. Chunki taekvondochilarimiz birinchi marta reyting orqali Olimpiadaning ikkita yo'llanmasiga ega chiqqandi.

Bu ikki sportchimiz XXXIII yozgi Olimpiada o'yinlarida ham shohsupaga ko'tarildi. Ularning ikkisi ham yana tarixiy natija qayd etdi. Xususan, -68 kg vazn toifasida dayanga chiqqan MVSM vakili Ulug'bek Rashitov yozgi Olimpiada o'yinlarining oltin medalini qo'lga kiritdi. U "Tokio – 2020"da ham zafar quchgandi. "Parij – 2024"dagi yutuq bilan Ulug'bek Rashitov Olimpiada o'yinlarining ikki karra g'olibligiga erishgan birinchi o'zbek taekvondochisi sifatida o'z nomini sportimiz solnomasiga muhrladi.

MVSM vakili Svetlana Osipova *(+67 kg)* esa "Parij – 2024" yozgi Olimpiya o'yinlarining kumush medalini qo'lga kiritib, o'z nomini mamlakatimiz taekvondo WT tarixiga Olimpiada sovrindori bo'lgan o'zbekistonlik ilk ayol sportchi sifatida yozdirib qo'ydi.



"Parij – 2024" yozgi Olimpiya o'yinlaridan keyin Butunjahon taekvondo federatsiyasi (WT) o'z yo'nalishida jahon reytingini e'lon qildi. Ikki karra Olimpiada chempionligiga erishgan taekvondochimiz Ulug'bek Rashitov -68 kg vazn toifasida katta farq bilan yetakchilikni qo'lga olgan. Svetlana Osipova esa +73 kg vaznda ikkinchi o'rinni egallagan. Yana bir qator taekvondochilarimiz, jumladan MVSM vakillari Jasurbek Jaysunov, Nikita Rafalovich va Ozoda Sobirjonova ham TOP-20 talikdan joy olgan.

Erkaklar:

-67 kg:
1. Ulug'bek Rashitov *(MVSM)*
-80 kg:
1. Firas Katoussi *(Tunis)* ...
8. Jasurbek Jaysunov *(MVSM)*
-87 kg:
1. Kim Vujin *(Koreya Respublikasi)* ...
3. Shuhrat Salayev
+87 kg:
1. Arian Salimi *(Eron)* ...
7. Nikita Rafalovich *(MVSM)*

Ayollar:

-62 kg:
1. Yuanxong Yin *(Xitoy)* ...
3. Feruza Sodiqova
-67 kg:
1. Viviana Marton *(Vengriya)* ...
5. Ozoda Sobirjonova *(MVSM)*
-73 kg:
1. Du Xi Yun *(Koreya Respublikasi)* ...
8. Gulsanam Alijonova
+73 kg:
1. Alteya Laurin *(Fransiya)*
2. Svetlana Osipova *(MVSM)*

* Reytingda peshqadam va TOP-20 talikdan joy olgan o'zbekistonlik atletlar ko'rsatilgan.

Ayni kunlari Koreya Respublikasining Chuncheon shahrida taekvondo WT bo'yicha yoshlar o'rtasida jahon chempionati bo'lib o'tmoqda. Unda tarkibidan MVSM vakillari ham o'rin olgan mamlakatimiz taekvondosi kelajagini belgilovchi 20 nafar yosh sportchimiz ham ishtirok etmoqda. Dunyo birinchiligi bahslari 6-oktabrga qadar davom etadi.

SHOHSUPA (xabarlar)

KIKBOKSING



Nafaqat mamlakatimiz, balki Markaziy Osiyo tarixida ilk marotaba poytaxtimizda tashkil etilgan kikboksing bo'yicha 53 ta davlat sportchilari ishtirokidagi jahon kubogi bahslari sportchilarimiz uchun muvaffaqiyatli yakunlandi. O'zbekiston terma jamoasi 172 ta oltin, 210 ta kumush, 336 ta bronza, jami 718 ta medal jamg'arib, umumjamoa hisobida 1-o'rinni egalladi. Ikkinchi o'rin 40 ta oltin, 26 ta kumush, 50 ta bronza, jami 118 ta medalni qo'lga kiritgan qozog'istonlik kikboksingchilarga nasib etgan bo'lsa, Tojikiston terma jamoasi 28 ta oltin, 16 ta kumush va 21 ta bronza medalga sazovor bo'lgan holda kuchli uchlikdan joy oldi.

SPORT KURASHLARI



Rossiyaning Kuzbass shahrida o'tkazilgan erkin kurash bo'yicha konchilar sharafiga bag'ishlangan xalqaro turnirda uch nafar polvonimiz shohsupaga ko'tarildi. O'smirlar o'rtasida Olimpiada chempioni Umidjon Jalolov barcha raqiblarini, jumladan finalda mezbonlar vakili Ayxerel Arijini taslim etgan holda musobaqa g'olibiga aylandi. -74 kg vazn toifasi bo'yicha bahslarda qatnashgan yosh erkin kurashchimiz Ja'far Cho'liboyev yakunda kumush, Ravshanbek Jumaboyev *(-97 kg)* esa bronza medal bilan taqdirlandi.

SHAXMAT



Ozarbayjonda shaxmat bo'yicha Vugar Gashimov xotirasiga bag'ishlangan an'anaviy xalqaro turnir bo'lib o'tdi. O'ninchi marta tashkil etilgan mazkur nufuzli turnirda musobaqaning 2022-yilgi g'olibi hamyurtimiz Nodirbek Abdusattorov ham qatnashdi. Blis va rapid yo'nalishlarida o'tkazilgan bahslar sarhisobiga ko'ra, rossiyalik Yan Nepomnyashiy 19 ochko jamg'argan holda xalqaro turnir g'olibiga aylandi. Mahoratli yosh grossmeysterimiz Nodirbek Abdusattorov esa 18 ochko bilan 2-o'rinni egalladi.

OG'IR ATLETIKA



Ispaniyaning Leon shahrida og'ir atletika bo'yicha yoshlar o'rtasida o'tgan jahon chempionatida yurtimiz sharafini himoya qilgan 7 nafar sportchidan 4 nafari shohsupaga ko'tarildi. Dunyoning 64 ta mamlakatidan 400 nafarga yaqin yosh og'ir atletikachi ishtirok etgan musobaqada O'zbekiston terma jamoasi a'zolari bitta oltin, 2 ta kumush va bitta bronza medalni qo'lga kiritdi. Hamyurtlarimizdan Diyorbek Ermatov oltin, Husinboy Matrasulov kumush, Nigora Abdullayeva kumush va bronza medallarga musharraf bo'ldi.

PARAVELOSPORT



Shveysariyaning Syurix shahri mezbonlik qilgan paravelosportning shosse yo'nalishi bo'yicha jahon chempionatida O'zbekiston terma jamoasi a'zosi Aziz Ataxo'jayev 2 ta bronza medalni qo'lga kiritdi. Dastlab musobaqaning erkaklar o'rtasida T1 klassida 11 km masofaga o'tkazilgan vaqt poygasi bahslarida qatnashgan hamyurtimiz belgilangan masofani 20 daqiqa 30 soniyada bosib o'tib, jahon chempionatining bronza medaliga sazovor bo'ldi. Shundan so'ng u erkaklar o'rtasidagi T1 klassida 31.8 km masofaga o'tkazilgan guruh poygasi bahslarida ishtirok etib, 3-o'rinni egalladi. Qayd etish joiz, Aziz Ataxo'jayev O'zbekiston paravelosporti tarixida jahon chempionatida sovrindor bo'lgan birinchi paralimpiyachiga aylandi.

Rasul JUMAYEV

SPORT SPORT SPORT

6-oktabr – Butunjahon tabiiy yashash joylarini himoya qilish kuni

Imkon topildi deguncha, albatta yovvoyi tabiat qo‘yniga oshiqamiz. Chunki u yerda hammasi tabiiy. Toza havo, sokinlik va go‘zal manzara. Yovvoyi tabiatni o‘ziga makon qilgan hayvonlar, qushlar va o‘simliklarga ko‘zimiz tushganda esa u yerlar ham insonga tegishlidek hayratimiz ikki karra oshadi.



MUHIT, MUVOZANAT VA ME’YOR

Aslida yovvoyi tabiat uchun biz begonamiz. Ularning tabiiy sharoitiga ta’sir ko‘rsatib, flora va faunaning yo‘qolib ketishiga sabab bo‘lmoqdamiz. Qancha asrlar o‘tibdiki, insoniyat o‘z faoliyati orqali tabiatga ta’sir ko‘rsatib, uni o‘zgartirdi. Har yili dunyoda tobora ko‘proq hududlar qishloq xo‘jaligi yaylovlarga aylanib, shaharlarning o‘sishi, tog‘-kon sanoati, fabrikalar va boshqa xalq xo‘jaligi obyektlarining qurilishi tufayli, o‘zgarishlarga duchor bo‘lmoqda. Inson tomonidan tabiat qonunlari va hududlariga nazoratsiz aralashuv hayvonlar va o‘simliklarning yuzlab turlari yo‘q bo‘lib ketishiga olib keldi. Butunjahon tabiatni muhofaza qilish ittifoqi ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi 500 yil ichida 844 turdagi hayvon va o‘simliklar butunlay yo‘q bo‘lib ketdi. Bu raqamlar oxirgisi ham emas. Bugungi kunda hayvonlar dunyosining ko‘plab turlari yo‘qolib ketish arafasida.

Tabiat muvozanatini buzish orqali yetkazilayotgan zararning jabrini yana o‘sha insonning o‘zi ko‘rmoqda. Yer sayyorasi faunasining yashash muhitini saqlab qolishga qaratilgan Bern konvensiyasi 1979-yil 6-oktabrda qabul qilingan bo‘lsa-da, odamlar tomonidan tabiatga yetkazilayotgan zarar to‘xtagani yo‘q. Shu bois kun doirasida atrof-muhitni muhofaza qilish tashkilotlari butun dunyo bo‘ylab turli ekologik tadbirlar o‘tkazib, jahon hamjamiyatini sayyoramizning tabiiy resurslariga g‘amxo‘rlik qilish va asrab-avaylash zarurligi haqida o‘ylashga chaqirmoqda. Bunday chaqiriqlar uzoq o‘tmishdagi ajdodlarimiz tomonidan ham ko‘p bora takrorlab kelingan. Quyida ularning ekologiyaga bo‘lgan qarashlarini o‘qirkanmiz, hali-hanuz o‘z dolzarbligini yo‘qotmaganiga amin bo‘lamiz.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ekologik qarashlari

Sharq xalqlari boshqa xalqlar kabi yashash mintaqalarini asrab-avaylab kelgan. Sharqda qadimdan yoshlarni qumursqaga ham ozor bermaslik ruhida tarbiyalashgan.

Imom al-Buxoriy “Al-jomi’ as-sahih” asarida tabiat haqida bunday deb yozgan edi: “Dunyo yam-yashil va go‘zaldir. Kimki undan haqli ravishda halollik bilan olsa, undan baraka topadi. Kimki nafs xohishi bilan dunyoni mukkasidan ketib egallasa, qiyomat kuni do‘zaxdan boshqaga erishmaydi!” Bu g‘oyalar zamirida tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanish qonuni yotadi.

Muhammad Narshaxiy o‘zining “Buxoro tarixi” kitobida Buxoro mamlakatining o‘sha davrdagi ekologik holatini batafsil tasvirlab bergan. Buxoro yerlarining serhosilligi, unumdorligi, qimmatbaholigi, daryo suvlarining yuqori sifatliligi, hayvonot va nabodot olami haqida ajoyib ma’lumotlar bergan. Masalan, arablar ilgari tovusni ko‘rmagan ekan. Tovus esa eng go‘zal qush bo‘lib, dumining o‘zida 42 xil rang jilolanadi. Birgina hayvonot turining o‘zida bunchalik ko‘p ranglarning mavjudligi boshqa biror-bir jonivorda kuzatilmaydi. Demak, o‘sha davrlarda xalqimizning ekologik ongi yuqori bo‘lgan, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi mutanosiblik qoidalariga rioya qilingan.

Birinchi qo‘riqxona ham Buxoroda tashkil etilgan. Unda otlar, kiyik va ayiqlar, tulki va kaptarlar saqlangan. Otlar uchun alohida o‘tloqlar, kaptarlar uchun kaptarxonalar qurilgan.

Abu Rayhon Beruniy biosferani o‘rganishda bitta fan emas, balki barcha fanlar zarurligini uqtirib o‘tgan. U dorivor o‘simliklar haqida “Saydana” asarida Markaziy Osiyoda o‘sadigan dorivor o‘simliklarning har biri haqida alohida ma’lumot berib, ularning foydali va zararli tomonlarini ko‘rsatib bergan.

Beruniy inson va muhit o‘rtasidagi munosabat haqida bunday yozgan edi: *“Odamlar tuzilishining rang, surat, tabiat va axloqda turlicha bo‘lishi faqatgina nasablarining turlichaligidan emas, balki tuproq, suv, havo va yer odam yashaydigan muhitning turlichaligidan hamdir!”* Beruniy foydali qazilmalar qatlamining paydo bo‘lishi, jinslarning yemirilishi, tog‘ jinslarining nurashi kabi muammolarni batafsil tushuntirgan. Uning “Mineralogiya” va “Saydana” asarlari, ayniqsa ekologik ma’lumotlarga boydir. U insoniyatni tabiat qonunlarini o‘rganishga chaqirib, “Tabiatda qotib qolgan narsa yo‘q, hamma narsa ma’lum vaqtdan keyin bir holatdan ikkinchisiga o‘tib turadi!” deb uqtirib o‘tgan.

Abu Ali ibn Sino “Tib qonunlari” asarida ekologiya asoslarini keng yoritib bergan. Agar eramizdan oldin yashagan yunon tabibi Gippokrat 200 ga yaqin giyohlar haqida ma’lumot bergan bo‘lsa, Ibn Sino o‘zining asarlarida 900 ga yaqin o‘simliklar xususida batafsil va samarali foydalanish yo‘llarini bayon etgan.

Ibn Sino Sharq donishmandlarining “Dorivor xususiyati bo‘lmagan o‘simlik yo‘q va o‘simlik bilan davolanmaydigan kasallik ham yo‘q!” degan g‘oyani amalda isbotlagan buyuk alloma. Inson salomatligi u yashayotgan muhit sifatiga, nafas olayotgan havo tarkibiga, ovqat sifatiga, suv va ijtimoiy ish faoliyatiga bog‘liq. Shuning uchun Ibn Sino “Agar dunyoda chang va g‘ubor bo‘lmaganda, inson ming yil yashar edi”, deb ta’kidlab o‘tgan. Ibn Sino suv oqadigan naylarga katta ahamiyat berib, “Qo‘rg‘oshin quvuridan oqqan suv xavflidir”, deya ogohlantirgan. Hovli sotib olayotgan paytda uning atrofidagi yerlar, suvlar va yaylovlarni ko‘zdan kechirish zarurligini ta’kidlagan.

Alisher Navoiy nafaqat shoir, balki davlat arbobi sifatida obodonchilik ishlariga katta ahamiyat bergan. Uning rahbarligida anhorlar qazilib, suv bilan ta’minlangan, qasrlar qurish, dehqonchilik va hunarmandchilik ishlari rivojlangan. Masalan, “Saddi Iskandariy” dostonida u Iskandarning Xuroson, Movarounnahr va Kashmirni fath etishi haqida ma’lumotlar berib, bu yerlarning tabiati va daryo suvlarini ta’riflab o‘tadi.

Muhammad Bobur o‘zining “Boburnoma” asarida ko‘rgan-kechirganlari, mintaqalarning tabiati, yerlari, boyligi, odamlari va ularning urf-odatlari hamda hayvonot va o‘simliklar dunyosi haqida nihoyatda qimmatli ma’lumotlar beradi. Buxoro, Samarqand, Farg‘ona, Hirot, Hindiston va boshqa shaharlarning iqlimi, suvi, meva-sabzavot turlari, gullari, bog‘lari haqida batafsil ma’lumot beradi.

Shunday qilib, buyuk bobokalonlarimiz o‘zlarining asarlari bilan ekologik muammolarni yechishga katta hissa qo‘shgan. Ularning g‘oyalari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Sherzod SHARIPOV tayyorladi.



ONAMNING YETIMI

Onam olamdan o‘tganidan keyin qishloqdan oyog‘im tortildi. Otam yana uylandi. Bu ishga o‘zim bosh-qosh bo‘lgan esam-da, ota uyimizga borgim kelmay qoldi. Begona ayolni qabul qila olmadim. Hamma narsani tushunaman ammo uni onamning o‘rnida ko‘rish ham og‘ir. Yo‘q, uning ko‘nglini og‘ritadigan biror xatti-harakat qilmadim, shunchaki o‘zimni tortdim. Otam, kelmaysanmi, deb so‘roqlagan payt ishlarim ko‘pligini bahona qilardim, o‘zingiz keling, derdim. Oilam, bolalarim oldida o‘gay onamga ko‘nikish biroz bo‘lsa ham oson edi.



Navbatdagi xizmat safarida o‘zim tug‘ilib o‘sgan viloyat markazida ishladim. Ishim tez bitdi. Uyga qaytsam bo‘lardi-yu, otamning qulog‘iga yetsa, xafa bo‘ladi. Ko‘rib o‘tmasam bo‘lmaydi.

Mashina ovozini eshitib, ayvondan hovliga tushib olgan otam bilan quchoqlashib ko‘rishdik. Soch-soqollari batamom oqaribdi, ozibdi. Biroq ko‘rinishi tetik, ko‘nglim xotirjam tortdi. O‘gay onam iymanibgina salom-alik qildi. Ko‘nglimdan kechganlarini sezsa kerak. Ukam va kelinim tomorqadan chiqib keldi. Ayollar darrov oshxona tomonga o‘tdi. Hovlida biroz turib qoldik. Shu payt osmondan tushgandek Amir g‘o‘ng‘illab kelib qolsa. Kelasolib, o‘zini menga otdi, mahkam quchoqlab olgan, bir nimalar deb g‘ug‘ulaydi, quchoqlaydi, yuzlarimga o‘pganidan so‘lagi yopishadi. Ota-bolalar kulishdik. Otam yanayam sevinib ketgandek tuyuldi.

–Buniyam qadami uzilib ketdi, onangdan keyin, – dedi otam uning yelkasiga urib qo‘yarkan, – sening kelganingni qayerdan bildi ekan? Yugurib kelganini qara.

Otam Amirning yelkasini silar, u parvo ham qilmay menga yopishib olgandi. Negadir otamning shu holi juda g‘arib ko‘rindi, keksayib qolganini his qildim, yuragim achishdi, bo‘g‘zimga nimadir tiqildi. Shu soqov erkakning xonadonimizga kirib kelishi uni nega bunchalar sevintirib yubordi? Amir onamni eslatdi, chamamda. Unga ham, menga ham...

Amir meni ko‘chaga tortqilay boshladi. Menga nimanidir ko‘rsatmoqchi. Otamga qaradim.

– Bor, bor, boraqol, – dedi jilmayib, – maqtangisi kelyapti.

Amir bizdan bitta uy narida yashaydi. Qo‘limdan mahkam ushlab yetaklab ketyapti. Hamqishloqlar bilan so‘rashgani qo‘ymaydi, betoqat bo‘lib ketyapti. Obbo, Amir-yeyy, nimani ko‘rsatmoqchi ekan?

***

...Amir mendan sakkiz yoshlar kichik. Ularning hovlisiga birov kirib chiqmasdi. Ba’zan jikkakkina, sap-sariq Eshim chol bozor-o‘charga chiqqanida ko‘rinib qolar, kampiri esa hatto tomorqasida ishlaganida ham yuzini o‘rab olardi. Odamlarga aralashmas edilar. Darvoza qulflangan tursa ham kichkina Amir ko‘chaga yo‘l topar edi. U cholning o‘g‘li emas nabirasi ekanligini ulg‘ayib bilganman. Eshim cholning yakka-yu yagona qizi go‘dakning soqovligini bilib, ota uyiga tashlaganicha qaytib qorasini ko‘rsatmagan, deyishadi. Kampir yoshligida bir necha marta er qilgan, farzandsizligi uchun taqdiri kelishmay Eshim cholga tekkan. Yuzini esa pes bo‘lib qolgani uchun yashirib yurar ekan.

Yozning boshlari edi. Onam ikkimiz tomorqamizga kiradigan ariqchani tozalayotgan edik. Ko‘chadan itning vovullagani, yana qandaydir jonivorning qo‘rqinchli ovozi eshitildi. It qandaydir jonivorni talayotganga o‘xshaydi. Onam ko‘chaga shu qadar tezlik bilan otildiki, orqasidan arang yetdim. Ne ko‘z bilan ko‘raylikki, qarshidagi qo‘shnimizning doim bog‘lovli turadigan ovcharka iti uch-to‘rt yoshlardagi go‘dakni bosib, irillab turardi. Onam xuddi burgutdek, qo‘llarini ko‘tarib itning ustiga bostirib bordi, allaqanday yovvoyi kuch bilan uni ko‘tarib otdi. It angillab qochdi. Bolani mahkam quchoqlab, chopib uyga kirdi.

– Suv olib kel, tezroq, o‘choqboshiga yugur, – dedi menga qarab shalvirab qolgan bolani quchog‘idan qo‘ymay.

Yugurib aytganini qildim. O‘choqdagi qozonning qorasidan suvga aralashtirib, bolaga ichirdi.

– Ona-aa, nima qilyapsiz, qorakuyani ichirasizmi? – deb so‘radim dahshat bilan.

–Ilgari kattalar qattiq qo‘rqqan bolalarga qozonkuya ichirardi, mana, qara, o‘ziga kelyapti, – dedi onam chiroyi ochilib. – Shunday bo‘lsa ham velosipedda g‘irillab borib, Azim do‘xtirni aytib kel, to‘g‘ri biznikiga kelaversin.

Shu kuni onam bolani quchog‘idan qo‘ymadi. O‘zi ham ingichka, changakdek qo‘lchalari bilan onamga yopishib oldi. Ismi Amir ekan, do‘xtir aytdi. Allaqanday ro‘yxatda turarmish. Kar-soqov tug‘ilgan ekan. Onam uni cho‘miltirib, ukamning kichik kelib qolgan kiyimlarini kiydirib qo‘ydi. Yoqimtoy bola bo‘lib qoldi. Onam shu bilan kifoyalanmay, qattiq qo‘rqib ketdi, deb, eski hujra oynasidan vahmakning uyasini topib kelib, Amirga ichirdi. “Amirning ichini loyqa bilan qoraqurumga to‘ldirdingiz”, deb opam ikkimiz kuldik. Onam parvo ham qilmay uning oldiga ovqat qo‘ydi. Qo‘lini tiqqan edi, qoshiq ushlatib qo‘ydi. To‘kib-sochib yesa ham tanbeh bermadi.

Kechda men uni uyiga olib borib qo‘ydim. Onam majbur qildi. Chol-kampirga ro‘para bo‘lgim kelmadi. Ko‘chaga chiqqanimizda onam engashib Amirning qo‘lini qo‘limga tuttirdi. U bir onamga, bir menga qarab qo‘limdan mahkam tutdi. Darvozasi har doimgidek qulflangan. Nima qilsam ekan, degan o‘yim oxirlamay Amir darvozani sekin itargan edi, ochildi. Qulf bitta halqaga osilgan ekan. Ikkinchi tavaqasida halqaning o‘zi yo‘q edi. Amir meni ichkariga tortdi, kirmadim. Ortimdan onamga o‘xshab qo‘l siltaganida kulgim qistadi.

Amir ertasi kuni yana keldi. Shu-shu, u ham oilamizning bir a’zosidek bo‘lib qoldi. Kelmay qolsa, otam hazillashib so‘rardi: “Onangni yetimi ko‘rinmay qoldi, uyda yo‘qligini bildimikan?” Otamning aytishicha, avval zamonlarda boy oilalar uylarida yetim saqlar ekan. Ismidan ham ko‘ra falonchiboyning yetimi, pistonchiboyning yetimi degan ibora ishlatilar ekan. Otam shunga sha’ma qilib, hazillashar edi. Biz boy emas edik, shunchaki onamning tiynatida tug‘ma fidokorlik bor edi. Amirni biz qatori kiyintirardi, ovqat ilinardi. Bu ishni hech bir minnatsiz qilardi. Eng qizig‘i, otam bu holatni shunday bo‘lishi kerakdek qabul qilgani edi.

Amirni cho‘miltirish menga yuklangan. Yoqimsiz ish. Bu yaramas bola opamga bormasdi. Qo‘lidan ovqat yeyardi, mevalar, shirinliklarni rad etmasdi. Cho‘milishga qolganida odam tanlardi.

– Shu jinqarcha ham uyatni biladi, – deb opam qotib-qotib kulardi.

Bir kuni hammomga o‘zini kiritib yubordim. Hammamiz dasturxon boshiga yig‘ildik. Shu payt Amir hammomdan mamnun chiqib keldi. Kelib menga g‘ug‘ulab qilgan ishini maqtandi, qo‘llarini, yuzini ko‘rsatdi. U qo‘lchalari bilan yuzining bir qismini astoydil yuvgan, bilaklari, quloqlariga suv tegmagan, suv tekkan sochidan oqqan kirlar bo‘ynida, badanlarida uzun izlar qoldirgandi... O‘tirgan joyimda onamning nigohlarini ko‘rmasam ham his qildim. O‘rnimdan sakrab turib, uni boshqatdan yuvintirib chiqdim. Hammamiz ovqatlanib bo‘lgach, onam meni yoniga chaqirdi. Rosa gap eshitaman, deb o‘yladim. Uff, o‘zimning ukam bo‘lsa ham boshqa gap edi.

– Sharifjon, to‘g‘ri, bu sening o‘z ukang emas, – dedi onam bosiqlik bilan xuddi xayolimdagilarni uqqandek. – Biroq bu bola boshqalarga o‘xshamaydi. Sen eshitasan, kulasan, yig‘laysan, qo‘shiq aytasan, kitob o‘qiganingda, kino ko‘rganingda hayajoningni, taassurotlaringni yoningdagilar bilan bo‘lishasan. Amir nima qilsin? Jim-jit dunyosida sen, men bormiz. Senga o‘rganib qolganini ko‘ryapsan-ku?! Chol-kampir xuddi soyabondek. Ba’zi odamlarga biz mas’ulmiz hatto ular buni anglamasa ham. Shuning uchun ham biz insonmiz. Amirni yuvintirganingda, bu ishni o‘zi mustaqil qilishga o‘rgat.

G‘alati bo‘lib ketdim. O‘zimni ulg‘ayib qolgandek his qildim. Amir bo‘lsa bir menga, bir onamga qarab turdi-da, meni xafa bo‘ldi deb tushundimi, oyog‘ini uchida uzalib, meni boshimni silashga tushdi. Onam ikkimiz baravariga kulib yubordik. U ham boshini osmonga ko‘tarib, g‘alati ovozda kulgimizga qo‘shildi. Shundan keyin men unga ko‘p narsalarni erinmay o‘rgatdim. Bora-bora u o‘zini bemalol eplab yuradigan, toza, sarishta bola bo‘lib qoldi.

Kunlarning birida onam kasalxonaga tushib qoldi. Amir odaticha ertalabdan uyimizga kelib, onamni qidira boshladi. Hamma qo‘lidan kelganicha imo-ishora bilan tushuntirishga urindi. U baribir tushunmay onam o‘tiradigan joyni ko‘rsatib, qani, deb so‘rayverdi. Shunda opam jonimizga oro kirdi. Onam uzoqda ekanligini osongina anglatdi. Amirning ko‘zlari g‘iltillab yoshga to‘ldi. Opam uning barmoqchalarini qo‘liga olib, u olti marta uxlab turganidan so‘ng onam kelishini tushuntirdi. Shundan keyin har tong opamning yoniga kelib, barmoqlarini unga ko‘rsatar, opam navbati bilan ulardan birini bukib ko‘rsatardi. Amir mamnun g‘o‘ng‘illab yana ortiga qaytardi. Onam uyda vaqtlardagidek kunini biznikida o‘tkazmasdi. Kampirga tomorqa ishlarida yordamlashar, Eshim cholning o‘zidek qoqsuyak qirchang‘i otini yetaklab, minib o‘ynardi.

Uning shahardagi maxsus-maktabda o‘qishi ham oson bo‘lmagan. Yotsirab yig‘layverib xun bo‘lib ketgan bola, oppoq boshini egib onamning qarshisida o‘tirgan Eshim chol... Shahar unchalik uzoq emas biroq bola uchun har kuni qatnash og‘ir edi. Avval onam bu ishni zimmasiga oldi, ba’zan otam, keyin shaharda o‘qiydigan, ishlaydigan hamqishloqlar yordam berdi. O‘zi ham mustaqil qatnashni o‘rgandi. Duradgorlik ishlariga qo‘li yaxshi kelishganini ko‘rgan onam qishloqdagi katta ustadan uni yoniga olishni o‘tindi. Usta onamning iltimosini yerda qoldirmadi.

Chol-kampir Amir voyaga yetar-yetmas o‘tib ketdilar. Onam o‘zi bosh bo‘lib uylantirdi. Qo‘shni qishloqdan biroz oqsab yuradigan hamshira qizni kelin qilib olib keldik. Negadir farzand ko‘rmadi.

***

Amirning hovlisiga kirdik. Tamoman o‘zgarib ketibdi. Shinamgina uy, chetlari rayhonli yo‘lak, chiroyli taralgan toklar, keng hovli. Oxirgi marta qachon bu hovliga kirgan edim? To‘yi bo‘lgan kun. Keyin onam...

Ayvondan chaqaloq yig‘isi, beshikning g‘irchillashi eshitildi. Hayajonlanib ketdim. Amir farzandli bo‘libdi! Mana, u kimni ko‘rsatmoqchi ekan. Xotini bolani beshikdan olib, salom berib, go‘dakni qo‘limga avaylabgina tutqazdi. Ortimizdan otam ham yetib keldi.

– Qarang, – deb boladek quvonib, chaqaloqni otamga ko‘rsatdim. – Nega menga bir og‘iz bildirmadinglar? Bu qizaloq “Bobo, meni ko‘rgani qo‘lingiz quruq keldingizmi?” deb uyaltirdi, meni.

Otam jilmaydi. Amir bo‘lsa bolalar aravachasini ko‘rsatib bir nimalarni tushuntirib ketdi. Xotini kelib “tarjimonlik qildi”:

– Otincha opam olib berdi, deyapti, bizga chaqaloqqa hech narsa oldirmasdan hamma narsasini o‘zlari olib berdilar.

Otincha opa – muallima opam. Ismini aytish hurmatsizlik bo‘ladi deb, otincha opa deydi, Amirning xotini.

– Ismini nima qo‘ydingiz?

– Men Oyxon deb chaqiraman, – dedi kelin xijolat bo‘lib.

–Ismi Mohim, Mohlaroyim, Mohim begim, – dedi otam sog‘inch to‘la, erkalovchi ovozda. – Amirning o‘zi qo‘ydi, bu ismni.

Otamga qaradim, ko‘zlarida miltillagan yosh, adoqsiz mehr, sog‘inch bilan qo‘limdagi Amirning qizalog‘iga boqib, onamning ismini yana takrorladi: Mohlaroyim, ismi.

Inobat NODIRSHOH


Sog‘lom turmush tarzi


TEZ CHARCHASH KASALLIK BELGISI(MI?)

Charchash, toliqish, horish – organizmga haddan tashqari zo‘r kelishi natijasida mehnat qobiliyatining pasayishi bilan kechadigan fiziologik holat hisoblanadi. Aqliy charchash intellektual mehnat mahsuldorligining kamayishi, e’tiborning buzilishi, fikrlashning susayishi va boshqalar bilan belgilanadi. Jismoniy charchash esa mushaklar kuchi va bir tekis harakatlanish kabi faoliyatning buzilishi bilan kechadi.













O‘ta va surunkali charchash bir-biridan farq qiladi. O‘ta charchash zo‘r berib jismoniy mehnat qilish natijasida ro‘y bersa, surunkali charchash turli funksional tizimlar va butun organizmdagi o‘zgarishlarning oylar va yillar davomida to‘liq tiklanmasligi bilan bog‘liqdir.

Charchashning yuzaga kelishida odamning bajarilayotgan ishga nisbatan munosabati ham muhim rol o‘ynaydi. Ko‘pchilik odamlarda emotsional qo‘zg‘alish davrida uzoq vaqtgacha charchash belgilari paydo bo‘lmaydi. Lekin yetarli dam olmaslik yoki uzoq vaqt haddan tashqari zo‘riqib ishlash baribir charchashga yoki mador qurishiga olib keladi.

Mehnat qilmagan odamlar ham charchaydi

Nega? Chunki ular og‘ir kasallikni boshdan kechirgan bo‘ladi. Shu sabab arzimagan va uncha uzoq davom etmaydigan zo‘riqish ham ularda bosh og‘rig‘i, harsillash, tez yurak urishi, terlash va quvvatsizlikka sabab bo‘ladi. Bunday kishilar mehnat tartibiga va iloji boricha uzoqroq dam olishga qat’iy amal qilishlari zarur.

Bolalar ham charchaydimi?

Ha, bolalar ham tez charchaydi. Masalan, go‘dak uyqudan qolganida yoki yosh bola maktabda partada uzoq o‘tirganida tez charchab qolishi mumkin. Kun tartibining noto‘g‘riligi, bir turdagi mashg‘ulot, ortiqcha o‘yin-kulgi ham ularning tez charchashiga sabab bo‘ladi. Bolalarda charchash belgilari ko‘pincha xatti-harakatlarining buzilishida ko‘rinadi: ular toqatsiz, e’tiborsiz, dars vaqtida gaplashadigan, ya’ni intizomsiz bo‘lib qoladi. Ba’zi hollarda, ayniqsa kasalliklarni boshdan kechirgan bolalar bo‘shang, sustkash, horg‘in, kuchsiz bo‘lib, fikrlaganda bosh og‘rig‘ini sezadi.

Doimiy toliqish biror kasallik alomatimi?

To‘g‘ri, har bir inson turli jismoniy zo‘riqishlardan so‘ng charchoq his qiladi. Ammo qisqa masofaga piyoda yurishdan yoki uyqudan uyg‘ongandan keyin charchoq hissini tuysangiz, buning sababi bilan qiziqib ko‘rish foydadan xoli bo‘lmaydi. Chunki toliqish, holsizlik o‘z-o‘zidan kelib chiqmaydi. Agar charchoq, mushaklar kuchsizligi, bosh og‘rig‘i, asabiylashish va boshqa belgilar bilan birgalikda kelganda muammoni hal etishda shifokor yordami zarur. Tongda uyqudan qiyinchilik bilan uyg‘onsangiz, ertalabdan holsiz va charchagan bo‘lsangiz, o‘zingizni quvvatsiz his qilsangiz va ish kunini tezroq yakunlab uxlashni istasangiz bu holatning sababini aniqlash lozim.

Nega tez charchaymiz?

Ish qobiliyatini uzoq vaqtgacha saqlab qolishning ta’sirli vositalaridan biri mehnat faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishdir. Chunki noto‘g‘ri taqsimlangan mehnat soatlari, vaqtida dam olmaslik bora-bora ko‘p hollarda uyquning buzilishiga olib keladi. Doimiy uyqusizlik esa charchash va toliqishga sabab bo‘ladi. Demak, har bir inson mehnat qilgandan keyin vaqtida dam olish, ish vaqtida qisqa muddatli tanaffuslar tashkil qilish, horg‘inlik his qilganda charchoqni yozadigan mashqlar bajarishga e’tibor berish zarur.

HOLSIZLIKKA SABAB BO‘LUVCHI OMILLAR

Yetarlicha suyuqlik qabul qilmaslik

Hatto ozgina chanqash ham holsizlik va charchoqni keltirib chiqaradi. Shuning uchun jismoniy mashg‘ulot qilganda, issiq ob-havoda yoki ruhiy stress kuchayganda yetarli miqdorda suv ichishni va uning miqdorini ko‘paytirishni unutmang.

Magniy yetishmovchiligi

Tanada magniy yetishmovchiligining asosiy belgilaridan biri quvvatsizlikdir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, kuniga 300 – 1000 milligramm magniy dozasi surunkali charchoq va aqliy zo‘riqish alomatlarini kamaytiradi.

Stress

Miyada adrenalin ko‘payishi tufayli yuzaga keladigan stress paytida ko‘proq quvvat sarflanadi. Shuning uchun stressdan qutulishga harakat qiling. Chuqur nafas olish va meditatsiya – asabiy taranglikni bartaraf etishga yordam beradi.

Harakatsizlik

Ko‘pchilik uchun kun yakunida sport zaliga borishning yaxshi tomoni – jismoniy mashqlar energiya olishning ajoyib usuli hisoblanadi. Agar muntazam ravishda mashq qilishni boshlasangiz, tez orada o‘zingizni faol va ishchan his qilasiz.

Noto‘g‘ri ovqatlanish

Oddiy uglevodlar va shakar darajasi yuqori bo‘lgan mahsulotlar qonda qand miqdorini oshiradi. Shundan so‘ng ular tezda tushadi. Bunday tebranishlar holsizlikka sabab bo‘ladi.

Yarim tungacha gadjetlardan foydalanish

Smartfon, planshet va noutbuklarni yotishdan bir yoki ikki soat oldin o‘chirib qo‘ygan afzal. Telefonni o‘zingizga yaqin tutmang, uxlayotganingizda internet yoki barcha messenjer bildirishnomalarini o‘chirib qo‘yganingizga ishonch hosil qiling. Vibratsiyali yoki kiruvchi xabar signallari jiddiy ravishda uyqu sifatini buzadi.

Ortiqcha zo‘riqish bilan ishlash

O‘zingizni doimo serg‘ayrat deb o‘ylamang va har bir taklifga “ha”, deb javob bermang. Agar bir paytda ko‘p vazifalarni bajarishga harakat qilsangiz, ertami-kechmi charchaysiz. Har doim dam olishga vaqt toping: bunda ishingiz samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Temir tanqisligi

Organlar va to‘qimalarga kislorod yetkazib beruvchi qizil qon hujayralari yetishmovchiligi natijasida charchoq paydo bo‘ladi. Temir tanqisligining sezilarli va yashirin holati uchun qon tahlili muammoni aniqlashga yordam beradi. Taomnomaga yong‘oq, dukkakli o‘simliklar va dengiz o‘tlari kabi temirga boy oziq-ovqatlarni kiritish orqali temir tanqisligidan qutulishingiz mumkin.

Nonushta qilmaslik

Kuchli faoliyat uchun organizmda yetarlicha “yoqilg‘i” bo‘lishi kerak. Ertalab nonushtasiz, o‘zingizni yomon his qilasiz. Organizm energiyaga muhtoj va ertalabki nonushta uchun u sizga “rahmat” deydi.

Spirtli ichimliklar

Spirtli ichimliklar birmuncha vaqt bo‘shashtirishi mumkin, lekin umuman olganda ular markaziy asab tizimini qo‘zg‘atadi, bu esa uyqu holatiga ta’sir qiladi. Shu bois alkogolli mahsulotlarni iste’mol qilganlar ertalab charchoq hissi bilan uyg‘onadi.

Bordi-yu, yuqoridagi sabablarning hech biri sizga mos kelmasa va tez charchash odatiy muammoga aylangan bo‘lsa, shifokorga uchrang.

Gulnora HODJAMURATOVA tayyorladi.

E’tirof

Ijodiy g‘oliblik mujdalari



Bugunning shiddatkor zamoni har sohada professionallik, tezkorlik talabini qo‘yayotgan bir pallada ijodkor o‘laroq maydonda qolish, ijod qilish yuksak vazifalardan biri desak rost aytgan bo‘lamiz. “Vatanparvar” birlashgan tahririyati xodimlari ham bu yo‘lda yuksak xizmati va faol ijodkorligi bilan yuqori marralarni egallab kelmoqda.

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 33 yilligi munosabati bilan e’lon qilingan “Eng yaxshi vatanparvarlik ruhidagi videorolik”, “Eng yaxshi vatanparvarlik ruhidagi qo‘shiq” hamda “Vatanni madh etuvchi eng yaxshi she’r” respublika ko‘rik-tanlovlarida erishilgan natijalar ham jamoamiz a’zolarining faolligi va tashabbuskorligidan dalolat beradi. Unda Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari hamda 18 va undan yuqori yoshdagi havaskor va professional ijodkorlar ishtirok etdi.

Asosiy maqsad harbiy xizmatchilar va yoshlarni ijodga qiziqtirish va intilishlarini qo‘llab-quvvatlash, joylarda adabiy muhit shakllanishiga erishish, harbiy xizmatchilar va yoshlarda vatanparvarlik fazilatini, yuksak ma’naviy, axloqiy-ruhiy va psixologik sifatlarni yuksaltirish, milliy va jangovar ruhini yanada mustahkamlash, yoshlar orasida vatanparvarlikni keng targ‘ib qiluvchi asarlar yaratish va ommalashtirishdan iborat.

“Eng yaxshi vatanparvarlik ruhidagi videorolik” yo‘nalishi bo‘yicha esa mutlaq g‘oliblik Mudofaa vazirligi nomidan ishtirok etgan polkovnik Timur Narzullayevga nasib etdi.

“Eng yaxshi vatanparvarlik ruhidagi qo‘shiq” yo‘nalishi ham munozaralarga boy bo‘lib, unda Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansamblining vokal guruhi xonandalari 3-o‘ringa munosib ko‘rildi. Ushbu tanlovning “Vatanni madh etuvchi eng yaxshi she’r” yo‘nalishida ishtirok etgan Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti “Vatanparvar” birlashgan tahririyati bo‘lim boshlig‘i, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi katta leytenant Islomjon Qo‘chqorov o‘zining Vatanni madh etuvchi turkum she’rlari bilan faxrli 2-o‘rinni qo‘lga kiritdi.

Departament jamoasi barcha g‘oliblarni chin yurakdan qutlab, ularning sharafli kasb yo‘lidagi ishlarida ulkan muvaffaqiyatlar tilab qoladi.

Quyida katta leytenant Islomjon Qo‘chqorov qalamiga mansub she’rni aziz gazetxonlarimizga armug‘on etib qolamiz!

VATAN

Tilimni chayon chaqsa, dilim chin ayt deb tursa,
Ichimda bir hur ovoz, o‘zingga qayt deb tursa.
Tushimda Temur bobom ot chopib, “hayt!” deb tursa,
Daralar sergak tortsa, men esa uyg‘onmasam.

Mudrab yotgan qonlarim tomirimda gupursa,
Xotirim kim eding, deb mudom so‘roqlab tursa.
Ko‘kdagi behisob ko‘z kimligim ko‘rib tursa,
Koinot to‘lg‘onsa-yu, men esa to‘lg‘onmasam.

Bobomning peshonasi egatdek chiziq-chiziq,
O‘tmishi qulf osilgan sandiqdek qiziq-qiziq,
Vaqt hukmida tuyg‘ular, rishtalar yuluq-uzuq,
G‘aflat mendan tonsa-yu, men undan tonolmasam.

Vatan! Vatan! deyman-u kalomim soxta, siniq,
Uning hovuch tuprog‘i ma’volari oq, tiniq.
Bu diyorning mash’ali iymon-la mudom yoniq,
Men kim bo‘ldim, gar uning qadrini anglolmasam.

Xalqim, mehring ziyosi ko‘nglingga boshlab borsin,
Hazrat Navoiy yurgan yo‘lingga boshlab borsin.
Bosh ustiga sinovlar, yo‘lga dard tashlab borsin,
Oshiq yo shoirmasman, shu darddan so‘z termasam,
Sening o‘g‘loningmasman, “Vatan!” deb jon bermasam.
Yashaganim ham yolg‘on shoningga shon bermasam,
Ona, o‘g‘lim demagil, kuningga yaramasam...

Mudofaaga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotlarida

YOSHLAR KAMOLOTIGA E’TIBOR



O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotining Xorazm viloyati kengashi tasarrufidagi Xiva tumani o‘quv sport-texnika klubida yoshlarning jismoniy va ma’naviy yetuk bo‘lishlariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Xususan, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga, ularni sportning texnik va amaliy turlariga jalb etishga hamda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega farzandlar sifatida voyaga yetkazishga yo‘naltirilgan tadbirlar bu boradagi ishlar sirasidandir.

– Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning intellektual jihatdan kamol topishi va ma’naviy rivojlanishini ta’minlash maqsadida bir qancha hamkor tashkilotlar bilan kelishilgan reja asosida ish olib bormoqdamiz, – deydi O‘STK boshlig‘i Davronbek Yuldashev. – Ma’naviyat va harbiy-vatanparvarlik targ‘iboti doirasida turli tadbirlar o‘tkazib borilishi an’anaga aylangan. Masalan, “Uch avlod uchrashuvi”, “Ochiq eshiklar kuni” kabi tadbirlar davomida ishtirok etgan turli soha vakillari yurtimizda yoshlar uchun yaratilayotgan sharoitlar hamda mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanish to‘g‘risida muhim tavsiyalarni berdilar.



Tuman yoshlarining bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish maqsadida klub qoshida “Havo miltig‘idan o‘q otish”, “Yozgi biatlon” va “Duatlon” kabi seksiyalar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan hamda 50 nafarga yaqin iqtidorli yoshlar jalb etilgan. Ular turli musobaqalarda sovrinli o‘rinlarni egallab kelmoqdalar.



Ayni paytda zamonaviy innovatsion texnologiyalar bilan qayta jihozlangan klubda “A”, “B”, “BC”, “BE”, “CE” toifali avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash borasida yaxshi samaradorlikka erishilmoqda. Tinglovchilarning kasb-hunarlarni puxta egallab olishlari uchun tashkilotda barcha zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Albatta, klubdagi bunday qulay imkoniyatlar kelgusida yoshlarning barkamol shaxslar sifatida shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

Akbar ALLAMURODOV



Fursatdan foydalanib, Xiva tumani O‘STK jamoasi ta’lim sohasining barcha xodimlarini 1-oktabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni bilan chin dildan muborakbod etadi. Muhtaram o‘qituvchi va murabbiylar! Sizlarga yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashdek sharafli mehnatlaringizda ulkan zafarlar tilaymiz!

BUYUK IXTIROLAR

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun

SHOKOLAD TO‘G‘RISIDA





Bolajonlar, sevimli shirinligingiz – shokolad qanday paydo bo‘lganini bilasizmi? Bu mahsulotning tug‘ilgan kuni ham bor, 11-iyul – shokolad kuni. Uni nafaqat dunyo bolalari, balki kattalar ham maza qilib iste’mol qilishadi. Shokolad kayfiyatni ko‘tarishi bilan birga insonlarga quvonch ulashadi. U kuchli antioksidant hisoblanib, miya faoliyatini yaxshilaydi.

Ma’lumotlarga qaraganda, ilk shokolad qadimgi maya va atstek qabilalarida paydo bo‘lgan. Ular kakao donlarini yetishtirib, undan ichimlik tayyorlashgan. Qadimgi atsteklar bu mahsulotdan bosh og‘rig‘idan tortib, yurak muammolarigacha bo‘lgan kasalliklarni davolash uchun dori sifatida foydalangan. Shu bilan birga ular uchun foyda keltiradigan asosiy pul topish manbai bo‘lgan.

Dastlab bu mahsulotning ilk nomi “xocolatl”, ya’ni achchiq suv degan ma’noni anglatgan. Ilk shokoladlar shirin bo‘lmagan. Hatto hozirgidek qattiq holatda ham emasdi, balki yorqin ta’mga ega suyuq ichimlik bo‘lgan. 1500-yillarga kelib, shokolad so‘zi “chokolat” shaklida yozila boshlagan. XVI asrda ispanlar bu ichimlikni Yevropaga olib kelishadi. Yevropaliklar shokoladni shirin qilish maqsadida unga shakar qo‘shib, uning dunyoga mashhur bo‘lishiga sababchi bo‘lishadi.

O‘sha davrlarda shokoladni faqat badavlat insonlargina iste’mol qilishgan. XIX asrga kelib, ishlab chiqarishning yangi texnologiya va uslublari yaratilishi natijasida bu shirinlikni oddiy aholi ham sotib olish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Bugungi kunda shokolad dunyodagi eng mashhur shirinliklardan biri hisoblanib, uning mingdan ortiq ta’m va turlari mavjud. Insoniyat ko‘p asrlar davomida undan bahramand bo‘lib kelmoqda.

O‘g‘irlangan kitob siri



Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Bizning dorilamon zamonda Jamshid degan bola bor ekan. U kundalik darslarini tez-tez bajarib, keyin kitob o‘qishni yaxshi ko‘rar ekan. Vaqt o‘tib, Jamshid uyi va maktab kutubxonasidagi jami kitoblarni o‘qib bo‘libdi. Ertasi kuni endi qayerdan kitob topib o‘qisam ekan, deb xayol surib ketayotganida ko‘zi “Noyob kitoblar” deb yozilgan do‘konga tushibdi. Do‘konda odam ancha siyrak ekan. Peshtaxta oldida oppoq soqoli kalta qilib olingan sotuvchi amaki Jamshidni jilmayib kutib olibdi. Bola darrov salom beribdi.

– Vaalaykum assalom. Kiraver bolam, kiraver, – debdi sotuvchi. Jamshid beixtiyor o‘ng tomonga yuribdi. Qator tokchalarda yangi emasligi yaqqol ko‘rinib turgan kitoblar taxlangan ekan. Oldiniga Jamshid “Bu kitoblarni o‘qib, tushunarmikanman. Mayli, bir aylanib ko‘ray-chi, biror kitob topilib qolar”, deb o‘ylabdi. Bir soatcha aylanib, hech bir kitobni tanlay olmaganidan xafa bo‘lib, eshik tomon yurganida, sotuvchi amaki:

– Ha o‘g‘lim, kitoblarim yoqmadimi? – deb so‘rabdi.

– Yoqayapti-ku, menga qaysi kitob mos kelishini bilolmadim, – debdi u.

– Isming nima, o‘g‘lim? – jilmayibdi sotuvchi.

– Jamshid.

– Jamshid, senmisan? Kelishingni anchadan buyon kutayotgandim.

– Meni nega kutayotgan edingiz, amaki?

– Sen to‘g‘ringda mahalladan ko‘p yaxshi gaplarni eshitganman. Kitob o‘qishni yaxshi ko‘rishingni ham bilaman. Kitob tanlay olmadim, deb xafa bo‘lma. Senga bir kitobni saqlab qo‘yibman. – Sotuvchi amaki peshtaxta tortmasidan usti naqshli, zalvarli bir kitobni olibdi va chang bo‘lmasa ham duxoba parchasi bilan yaxshilab artibdi.

– Bu kitobni 999 ta kitob o‘qigan bolaga sovg‘a qilish kerak. Shu sabab seni poylayotgandim.

– Iye amaki, siz buni qayoqdan bilasiz? – ajablanibdi Jamshid. Sotuvchi amaki miyig‘ida kulib qo‘ya qolibdi.

– Kitobni avaylab o‘qigin, bolam. Uni ehtiyot qil. Toki uni o‘qib tugatmaguningcha hech kimning, ayniqsa, darslarni durust o‘zlashtirmaydigan bolaning qo‘liga tushmasligi kerak. Shartim shunday. Qachon o‘qib bo‘lsang, menga olib kelasan. Uni yangi egasiga o‘zim topshiraman. Kelishdikmi?

– Nega bunday shart bilan beryapsiz, amaki?

– O‘g‘lim, uyga borib, choy-poyingni ichgin. Albatta, darslaringni qilgin. Ana undan keyin kitobni o‘qishni boshlasang, uning jilvasini ko‘rasan, – debdi sotuvchi amaki.

Jamshidning ko‘zlari yonib, rahmat aytib, uyiga ketibdi. U tartibli bola ekan. Uy vazifalari va boshqa yumushlarini birzumda bajargach, kitobni hayajon bilan qo‘lga olibdi. Hamma bolalar kabi ichida qanday suratlar bor ekan, deb varaqlab ko‘ribdi. Ne ko‘z bilan ko‘rsinki, kitob ichida suratlar tugul yozuv ham yo‘q ekan. Varaqlar bo‘m-bo‘sh! Jamshid xafa bo‘lib ketibdi: “Sotuvchi amaki ustimdan kulibdi-da. Lekin amaki 999 ta kitob o‘qiganimni qayerdan bildi ekan?” U nima qilarini bilmay, yana kitob do‘koniga borsa, do‘kon joyida yo‘q ekan. Nima qilarini bilmay, uyga xomush qaytibdi. Juda qattiq xafa bo‘lib uxlab qolibdi. Tush ko‘ribdi. Tushida sotuvchi amaki: “Jamshid, bolam, kechir, qarilik-da, senga bir gapni aytmabman. Do‘konga ertaga kel, aytaman,” – deb g‘oyib bo‘libdi. Ertasi maktabdan chiqib yana do‘kon tomon boribdi. Ne ko‘z bilan ko‘rsinki, do‘kon joyida! Kirib sotuvchi amaki bilan so‘rashibdi.

– Bolam, keldingmi? Senga o‘sha kuni bir gapni tayinlashni unutibman. Kitob – aytganimdek, 999 ta kitobni o‘qimagan va sehrli so‘zni aytmagan bolaga o‘z ajoyibotini ko‘rsatmaydi. Uni qo‘lga olganda sehrli so‘zlarni aytish kerak.

– U qanday so‘zlar ekan, tezroq ayting.

– Shoshma, o‘g‘lim. Bu so‘zlarni ikki bor aytishga haqqim yo‘q. Shuning uchun uni bir marta aytganimda yodlab olishing kerak. Undan tashqari, bu kitob darslarni durust o‘zlashtirmaydigan, yolg‘onchi bolaning qo‘liga tushishi kerak emas. Kitobni o‘qib bo‘lguningga qadar bu haqda biror do‘stingga aytma, uqdingmi?

– Tushundim, amaki, uni bir eshitishda yodlab olaman. – Jamshidning hofizasi o‘tkir ekan. Chunki u juda ko‘p kitob o‘qigan ekan-da.

– Bo‘pti, bolam, eshit:

“O‘qidim 999 kitob,
Maqtanib qilmayman xitob.
Bo‘laman chin inson,
Unutmam va’damni bir on.

– Yodlab oldingmi? Endi boraqol!

– Rahmat, xayr amaki, – Jamshid uyiga chopqillabdi. Yo‘l-yo‘lakay sehrli so‘zlarni ichida takrorlab ketibdi. Darslarini, uy ishlarini tez-tez qilibdi va yana kitobni avaylab qo‘liga olibdi. Chuqur nafas olib, sehrli so‘zlarni aytibdi. Shu zahoti kitobdan ajoyib nur taralibdi. Bosh sahifani ochsa, gulzorning surati chiqibdi. Yengil, yoqimli shabada esib, xonani gul isi tutib ketibdi. Jamshid qattiq hayajonlanibdi. Birinchi betni ochibdi. Shu zahoti yozuvlar ham paydo bo‘libdi. Jumlalarni o‘qiy boshlabdi. Qaysi jumlani o‘qib bo‘lsa, o‘rnida yozuvga tegishli tasvirlar jonlanar ekan. Jamshid cho‘lda qolgan odam suvni qanday yutoqib ichsa, kitobni shunday maza qilib o‘qiy boshlabdi.

Shunday qilib kech bo‘libdi. Yotib uxlabdi. Tong otibdi. O‘qishga boradigan vaqt bo‘libdi. Jamshid maktabga har kuni yon qo‘shnisi bo‘lgan sinfdoshi – Erkin bilan borar ekan. Yo‘lda Erkinga kechagi voqeani aytib beribdi. Chunki qo‘lida qanday zo‘r kitobi borligini aytib, maqtangisi kelibdi-da. Sinfdoshi kitobga juda qiziqib qolibdi. Jamshid sotuvchi amakining, bu kitob darslarni durust o‘zlashtirmaydigan, yolg‘onchi bolaning qo‘liga tushishi kerak emas, degan gaplarini kech eslab, tilini tishlab qolibdi. Erkinga sotuvchi amakining taqiqlarini qanday aytishni bilmabdi. Erkin bo‘lsa, kitobni ko‘rsatasan deb, Jamshidga shiradek yopishib olibdi.

– Xafa bo‘lma-yu, kitobni senga ko‘rsata olmayman, – debdi Jamshid.

Erkin arazlab, tumsayibdi. Maktabga yetib borguncha Jamshid bilan gaplashmabdi. Bu kech ham Jamshid sehrli kitobni maza qilib o‘qibdi. Yana hayratga tushibdi. Kitobni quchoqlab, uyquga ketibdi.

Endi gapni Erkindan eshiting. Erkinning uyqusi kelmabdi. Jamshidlarning uyidagi chiroqlarni o‘chishini poylab yotibdi. Nihoyat, hamma chiroqlar o‘chibdi. Erkin o‘rnidan turib, devordan oshib, Jamshidlarnikiga tushibdi. Jamshidning qo‘lidan kitobni sekin sug‘urib olibdi. Jamshid hech narsani sezmay, uxlayveribdi. Erkin esa uyiga qaytibdi. Xonasiga kirib, qo‘lchirog‘ini yoqib, kitobni ochibdi. Kitob negadir qorayib ketibdi. Erkin hayron bo‘lib, uni varaqlay boshlabdi. Unda hech qanday yozuv ko‘rmabdi.

– Shu ham kitob bo‘ldi-yu, Jamshid meni rosa aldabdi-da. Ertalab ta’zirini berib qo‘yaman, – degan o‘y bilan o‘zini tinchlantiribdi.

Tongda Jamshid kitobni xonasidan topa olmagani uchun xafa bo‘lib, maktabga yo‘l olibdi. Erkin unga yetib olib:

– O‘-o‘, Jamshid aldoqchi, quruq maqtanchoq! Nega meni aldading?! – deb baqira ketibdi.

– E-e, kitobimni sen o‘g‘irladingmi? Nimalar qilib qo‘yding, Erkin? – Erkin indamay turaveribdi.

Jamshid uni tushunib: – Bo‘lar ish bo‘libdi, o‘rtoq. Hali darslaringni qilib, kitobni olib, biznikiga chiq. Hammasini aytib beraman, – debdi. Kechqurun ikki sinfdosh Jamshidlarnikida uchrashibdi. Jamshid bo‘lgan voqeani bir boshidan aytib beribdi.

– Ana endi men kitobni o‘qiyman, sen bir chekkadan nimalar bo‘lishini ko‘rib tur. Faqat kitobga qo‘lingni tekkiza ko‘rma. Bo‘lmasa, kitob varaqlari bo‘m-bo‘sh bo‘lib turaveradi. – Jamshid sehrli so‘zlarni aytib, kitobni ochibdi. Kitob o‘z jilvasini ko‘rsatibdi. Erkinning nafasi ichiga tushib, ko‘zlari olayib ketibdi. Demak, Jamshid aldamabdi-da. U nima qilsam-u, kitob menga ham o‘z jilvasini ko‘rsatsa, deb o‘ylabdi.

– Jamshid, nima qilsam bu sehrli kitobni men ham o‘qiy olaman?

– Hali ham tushunmadingmi, avvalo, hamma darslarni a’loga o‘zlashtir. Ana undan keyin 999 ta badiiy kitobni o‘qib chiqishing kerak. Men bu kitobni o‘qib bo‘lib, sotuvchi amakiga olib borib topshiraman. U amaki, menimcha, sehrgar. Agar aytganlarimni qilsang, sehrgar amakining o‘zi seni topib oladi.

Shu kundan boshlab, Erkin darslarda faol javob berib, bir necha oyda a’lochi o‘quvchilar safiga kiribdi. Darsliklardan tashqari badiiy kitoblarni o‘qishga kirishib ketibdi. Oradan ikki-uch yil o‘tibdi. Uning o‘qigan kitoblari ham mingga yaqinlashibdi. Erkin butunlay boshqa bolaga aylanib qolibdi.

Jamshid o‘qish navbati do‘stiga yetganini sezibdi. Sehrli kitob haqidagi gap asta-sekin butun maktabga tarqalibdi. Barcha o‘quvchilar bu sirli kitobni o‘qishga loyiq bo‘lish uchun harakat qilibdi. Oqibatda, maktabda bitta ham qoloq o‘quvchi qolmabdi. Yaxshi xabar mahallaga, tumanga, butun o‘lkaga tarqabdi. Qarabsizki, bu o‘lkaning bolalar va o‘smirlari kitob o‘qishni o‘zlariga asosiy maqsad qilib qo‘yibdi. Bu o‘quvchilar kelajakda sohalar bo‘yicha eng yaxshi mutaxassis-u olim bo‘lib yetishibdi. Mamlakat yana ham obod bo‘libdi.

Aziza ZUPAROVA

Sahifani Zebo SARIYEVA tayyorladi.

Ko‘rik-tanlov

Harbiy orkestrlar sadosi

Sohibqiron harbiy yurishlarda musiqiy asboblarga bo‘lgan ixlosini unutmagan. Uning harbiy amaliyot tarixiga kiritgan qator kashfiyotlari bor. Masalan, mo‘jaz shahar va qishloqqa hujum boshlashdan avval u yerga ehtiyotkorlik bilan karnaychi va nog‘orachilar kiritilgan. Erta tongda bexos bu asboblarning yangrashi aholini dovdiratib qo‘ygan hamda bu holat harbiylarga yordam bergan.



Aslida ajdodlarimizdan bizgacha meros bo‘lib kelayotgan harbiy musiqalarning o‘rni haligacha o‘z mavqeini yo‘qotgani yo‘q. Harbiylarga jangovar ruh, xalqqa esa ko‘tarinkilik baxsh etadigan “marsh” tempidagi musiqalarni ijro etadigan mutaxassislar maxsus tayyorgarliklardan, turli sinovlardan o‘tadi. Avvalo, bunday kasb egalaridan alohida iqtidorga ega bo‘lish talab etiladi.

Poytaxtimizning “Tashkent City” ko‘ngilochar maskanida Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida harbiy xizmatchilarning musiqa va san’atga qiziqishini oshirish, iste’dodini aniqlash va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda ularni Vatanga muhabbat, harbiy burchga sodiqlik, vatanparvarlik tarbiyasini takomillashtirish, shuningdek harbiy orkestrlarning nufuzini oshirish maqsadida “Harbiy orkestrlar sadosi” ko‘rik-tanlovi o‘tkazildi. Unda Qurolli Kuchlar akademiyasi, Toifalangan obyektlarni qo‘riqlash qo‘shinlari qo‘mondonligi hamda okruglardan tashrif buyurgan harbiy orkestr jamoalari kuy-navo borasida o‘zaro bahsga kirishdi. Ko‘rik-tanlovni shaffof tarzda o‘tkazish maqsadida musobaqaga malakali hakamlar hay’ati ham taklif etildi. Jami yettita jamoa ishtirok etgan mazkur tanlovda ishtirokchilar “marsh” tempidagi musiqalarning ijrosini maromiga yetkazib, tomoshabinlarning olqishiga sazovor bo‘ldi. Ko‘rik-tanlovning yakuniy natijalariga ko‘ra, birinchi o‘rin O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi, ikkinchi o‘rin Sharqiy harbiy okrug, uchinchi o‘rin esa Markaziy harbiy okrugning orkestr jamoasiga nasib etdi. G‘oliblar qimmatbaho sovg‘alar va diplom bilan taqdirlandi.

Shuningdek, musobaqa ishtirokchilari 1-oktabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni bayrami munosabati bilan poytaxtimizning diqqatga sazovor joylarida konsert dasturlarini ham namoyish etdi. “Tashkent City” hamda “Magic City” ko‘ngilochar maskanlarida o‘tkazilgan musiqiy dasturlar hamshaharlarimizga xush kayfiyat ulashib, bayramning yanada mazmunli o‘tishiga xizmat qildi.

Sh. EGAMBERDIYEV,
“Vatanparvar”



@Vatanparvargazetasi_bot
“Vatanparvar” birlashgan tahririyati bilan bog‘lanish uchun telegram bot

SHU SONNING ELEKTRON SHAKLI

VATANPARVAR

MUASSIS
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI
www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:
general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabek Yuldashev
polkovnik Alisher Boboxonov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – “Vatanparvar” birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 71 260-36-50
buxgalteriya: 71 260-35-20
yuridik bo‘lim: 71 260-29-41
faks: 71 260-32-29

Navbatchi: katta leytenant Dilshod Ro‘ziqulov
Sahifalovchi: Begali Eshonqulov
Musahhih: Sayyora Meliqo‘ziyeva

Buyurtma: V-5829
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 33 941 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “O‘zbekiston” NMIU mas’ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan.

Nashr ko‘rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

“O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri Alisher Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz:
100164, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 1-uy.

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi
www.mv–vatanparvar.uz
www.mudofaa.uz
mudofaavazirligi
mudofaavazirligi
www.youtube.com/c/UzArmiya